

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI


GEOGRFIYA O'QITISH METODIKASI KAFEDRASI

O'ZBEKISTON TABIIY GEOGRAFIYASI

FANIDAN

AMALIY MASHG'ULOTLAR

USLUBIY QO'LLANMA



NAVOIY - 2016

Pedagogika institutlarning geografiya o`qitish metodikasi yo`nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar foydalanishi mumkin bo'lgan ushbu uslubiy qo'llanmada tabiiy geografiyaning o'rganish obyekti, predmeti va ularning xususiyatidan kelib chiqqan holda fanning tarmoqlanishi savol va topshiriqlar berilgan. O'zbekistonning geografik o'rni, geologik tuzilishi, reliefi, iqlimi, ichki suvlari, tuprog'i, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda tabiiy geografik rayonlariga oid mavzular savol va topshiriqlar bayon etilgan.

Mualliflar:

katta o`qituvchi Norov Sh.Sh.
magistrant Oblaqulov H.A.

Taqrizchilar:

dots. To`rayev A.S.
katta o`qituvchi Buranov Yo.R

Ushbu uslubiy qo'llanma "Tabiiy fanlar" fakulteti kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2016 yil __ fevraldagi -sonli bayonnoma).

KIRISH

Respublikamizda xalq ta'limi sohasini rivojlantirish va bu soha uchun malakali pedagog kadrlarni yetkazib berishga katta e'tibor berilmoqda. Malakali kadrlarni tayyorlashda o'quv jarayonini takomillashtirish, uni dars jarayonining sifatini oshiruvshi vositalar, o'quv adabiyotlari va uslubiy qo'llanmalar bilan yetarlicha ta'minlash dolzarb muammo hisoblanadi.

O'lka tabiatini o'rganishning yoshlar tarbiyasidagi o'rni doimo qaysi joyda yashashidan qat'iy nazar beqiyosdir. O'z o'lkasini o'rganish, yahshi bilish kishining vatanparvar, barkamol inson bo'lib etishishiga yordam beradi, hamda uning ruhan teran, yuqori ma'naviyatli bo'lishiga sabab bo'ladi.

O'zbekiston tabiiy geografiyasi fani tabiiy geografiya, umumiy yer bilimi, geologiya, geomorfologiya, iqlimshunoslik, landshaftshunoslik, Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, tarix, kartografiya fanlari bilan aloqadordir.

O'zbekiston tabiiy geografiyasi fanini o'qitishning ahamiyatini juda ko'p allomalar o'z fikrlarida bayon etishgan. Biz ham uning ta'lim - tarbiyaviy ahamiyatini belgilashga harakat qildik.

- Talabalarda tabiat va jamiyatga nisbatan to'g'ri dunyoqarashni tarbiyalash;
- Geografik bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash;
- Ona tabiyatga bo'lgan qiziqishlarni orttirish, tabiatni sevish va uni muhofaza qilish

- O'zbekiston tabiiy rayonlarini va tabiiy ob'ektlarini tadbiq etishga oid bilim va ko'nikmalarni hosil qilish;

- O'zbekistonning tabiiy geografik birliklari, Markaziy Qozog'iston, Turon provinsiyalari, tekislik, tog' oldi va tog' kichik provinsiyalari. Tekislik kichik provinsiyalari: Ustyurt, Quyi Amudaryo, Qizilqum, Quyi Zarafshon, tog'oldi va tog' kichik provinsiyalari, Farg'ona, O'rta Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, G'arbiy Tyanshan, Turkiston-Nurota, Xisor-Zarafshon, Bobotog' okruglari va rayonlarning kompleks tabiiy geografik tavsifini o'z ichiga olgan.

AMALIY MASHG'ULOT -1

Mavzu: O'zbekiston tabiiy geografiyasining o'rganish ob'yekti, maqsadi, vazifalari.

O'zbekiston O'rta Osiyoning markaziy qismida joylashgan. Uning hududining asosiy qismi Amudaryo bilan Sirdaryo orasida bo'lib, mo'tadil va subtropik iqlim mintaqalarida o'rnatilgan.

O'zbekiston janubi-sharqda Tojikiston bilan, sharqda Qirg'iziston bilan, shimol va shimoli-g'arbda Qozog'iston bilan, janubi-g'arbda esa Turkmaniston bilan chegaradosh. Janubda O'zbekiston Surxon-Sherobod vodiysida Afg'oniston bilan chegaradoshdir. Bu yerda Afg'oniston bilan O'zbekiston chegarasi Amudaryo orqali o'tadi.

O'zbekiston maydoni 448,9 ming kv. km bo'lib Norvegiya, Finlyandiya, Buyuk Britaniya va Italiya kabi davlatlar hududidan katta. O'zbekiston Belgiya, Gollandiya va Daniya kabi davlatlarning yer maydonlarini qo'shib hisoblasak ham ulardan 4 marta kattadir. Respublikamiz hududi Shveysariya davlati hududidan 10 marta ziyoddir.

Maqsad: O'zbekiston tabiiy geografiyasining o'rganish ob'yekti, maqsadi, vazifalari. O'zbekistonning umumiy tabiiy geografik tavsifi. O'zbekiston haqida umumiy ma'lumot. O'zbekistonning geografik o'rni, chegaralari, eng chekka nuqtalari, maydoni. O'zbekiston Respublikasi geografik o'rnini uning tabiiy sharoitini shakllanishida va xo'jaligining rivojlanishida ahamiyati. O'zbekiston tabiiy sharoiti va boyliklarining o'ziga xos xususiyatlari o'rganish.

Dars jixozi: Jaxonning siyosiy xaritasi, O'zbekistonning tabiiy xaritasi, O'zbekiston geografik atlas.

Bu amaliy mashg'ulotimizda talabalarga quyidagi vazifalar beriladi:

1-topshiriq: Yozuvsiz kartaga O'zbekistonning davlat chegaralarini tushirish, chekka nuqtalarini aniqlab, ularni koordinatalarini yozib qo'ying. Chekka nuqtalari orasidagi masofani aniqlang. Chegara qaysi tabiiy ob'ektlardan o'tishini aniqlab, ular nomini yozuvsiz haritada belgilang.

2-topshiriq: O'zbekistonning geografik o'rnini G'arbiy Evropadagi va sharqiy Osiyodagi shu kenglikda yotgan davlatlar bilan solishtiring va tabiati o'rtasidagi farqlarni, ularning sababini amaliyot daftariga yozing.

3-topshiriq: O'zbekistonning g'arbi Atlantika okeanidan, sharqi Tinch okeanidan shimoli Shimoliy muz okeanidan va janubi Hind okeanidan necha km uzoqlikda joylashganligini hisoblab chiqib amaliyot daftariga yozing. Bunda quyidagi jadvaldan foydalaning (jadval-1). Karta mashtabidan ham foydalaning. Poytaxt Toshkentni ham, Navoiy shahrini ham okeanlardan necha km masofada joylashganligini aniqlang.

Bir gradusdan turli kengliklardagi uzunligi.

Jadval -1

№	Kenglik va uzoqlik (gradus hisobida)	Yer sharidagi 1 ^o meridian yoyining uzunligi (1 km hisobida)	Yer sharidagi 1 ^o paralel yoyining uzunligi (1 km hisobida)
1	35	110,9	91,2
2	40	111	85,3
3	50	111.2	71.2
4	60	111.4	55.8
5	70	111.5	38.1

4- topshiriq: O'zbekiston hududining o'ziga hos hususiyatlarini karta va darsliklardan foydalanib, amaliyot daftariga yozing. Bunda davlatimizning geografik o'rnini, chegaralarini, relyefini rolini ko'rsating.

5-topshiriq. O'rta osiyo tabiiy va ma'muriy xaritalari yordamida O'zbekistonning chegaralari o'tganish.

a) O'zbekiston O'rta Osiyoning qaysi qismida joylashgan, qaysi davlatlar bilan chegaradosh? Chegara qaysi tekislik, vodiylar, qir, adir, tog' tizmasi, daryo, ko'l, suv omborlari, qo'riqxonalar va buyurtmalar orqali o'tadi? O'sha chegara o'tgan geografik obektlar ro'yxatini tuzib, amaliy daftarga yozish kerak;

- b) O'rta Osiyo tabiiy xaritasi yordamida (masishtabdan foydalanib) O'zbekiston chegarasing umumiy uzunligini hisoblab chiqish. Bunda "umumiy yer bilimi" dan olgan bilimdan foydalaniladi. So'ngra o'rta Osiyo ma'muriy xaritasidan O'zbekiston chegarasi qaysi davlatlar bilan necha kilometr masofaga cho'zilganligini aniqlang;
- d) O'rta Osiyo tabiiy va ma'muriy xaritalarni bir-biriga taqqoslab, O'zbekiston chegaralarini tabiiy va iqtisodiy aloqa qilish jihatidan qulay va noqulay tamonlarini aniqlash.
- e) O'zbekiston yozuvsiz xartasiga uning shimoliy va janubiy chekka nuqtalarining geografik kengliklarini, sharqiy va g'arbiy chekka nuqtalarining geografik uzunliklarini yozib qo'yish. So'ngra chegaradosh davlatlarni davlatlarni belgilab, ulaning nomlarini yozib, O'rta Osiyo tabiiy xaritasi yordamida o'sha davlatlar chegaralari qaysi tepalik, vodi, adir, tog', daryo, suv omborlari orqali o'tishini bilib olish.

6 –topshiriq: O'zbekiston yer sharining 4-soat mintaqasida joylashgan. Agar O'zbekistonda, xususan Toshkentda soat 14.00 bo'lganda Tokio, Pekin, Krasnoyarsk, Ostona, Moskva, Varshava, London, Parij, Vashington, Kongo kabi shaharlarda soat necha bo'lishini aniqlang. Bunda " umumiy yer bilimi " dan olgan bilimlaringizdan (soat mintaqalari xaritasidan) foydalanasiz.

AMALIY MASHG'ULOT -2

Mavzu: O'zbekiston tabiati va tabiiy boyliklarining o'rganish tarixi.

O'zbekiston hududi tabiati haqidagi dastlabki, ilmiy jihatdan mukammal geografik ma'lumotlar jahonga mashhur bo'lgan IX—XII asrlarda yashagan O'rta Osiyolik qomuschi olimlar tomonidan yozib qoldirilgan. Ular 780 yil Xivada tug'ilib, 850 yili Bag'dodda vafot etgan yurtdoshimiz *Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy*, *Ahmad Farg'oniy* (IX asr boshida tug'ilib, 861 yili vafot etgan), *Abu Abdullo Muhammad ibn al Termiziy* (861 yili vafot etgan), *Abu Nasr Forobiy* (873 yili Turkiston shahri yaqinidagi Forob (Utro) da tug'ilib, 950 yili Damashqda

vafot etgan), *Abu Bakr Narshaxiy* (899-959 yillar), *Abu Rayxon Beruniy* (973-1048 yillar), *Abu Ali ibn Sino* (980-1037 yillar), *Maxmud Qoshg'ariy* (XI asr) va boshqalardir.

Maqsad: O'zbekiston tabiati va tabiiy boyliklarining o'rganish tarixi. O'zbekiston haqida qadimiy geografik ma'lumotlar. Horijiy olimlarning antik davrda Movarounnahrda oid fikrlari. Yunon olimlari, o'rta asrda yashagan arab va eron sayyohlari yozib qoldirgan Muxammad Ibn Muso al-Xorazmiy, Axmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Bakr Narshaxiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Maxmud Qoshg'ariy va boshqalarning xizmatlari. O'lkaga oid geografik bilimlarning taraqqiy etishida Temuriylar davrida yashagan olimlarning (Xofizi Abdu, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, Bobur va boshqalar) hissalarini. Mustamlaka davridagi tadqiqotlar. Mustaqillik davridagi tadqiqotlarni o'rganish.

Dars jixazi: Tarixiy xaritalar, O'zbekistonning tabiiy xaritasi, O'zbekiston geografik atlasini

1-topshiriq: Talabalarga O'zbekiston tabiatini o'rgangan asosiy olimlarning ismi – sharifi, yashagan vaqti va qilgan ishlarini aks ettiruvchi quyidagi jadvalni to'ldirish topshiriladi.

Jadval - 2

№	Olimning ismi - sharifi	Yashagan vaqti	Qilgan ishlari haqida
1.	Muhammad ibn Muso Xorazmiy		
2.	Ahmad Farg'oniy		
3.	Abu Nasr Farobiy		
4.	Abu Rayhon Beruniy		
5.	Ibn Sino		
6.	Hofizi – Abro'		
7.	Ulug'bek		
8.	Bobur		
9.	Haydar Mirza		
10.	I. B. Mushketov		
11.	Dimo		
12.	Korjenevskiy N. L.		
13.	Koshkarov D. N.		
14.	Korovin E. P.		

15.	Berg L. S.		
16.	Gerasimov I. P.		
17.	Babushkin L. N.		
18.	Babaev A. K.		
19.	Shul's B. L.		
20.	Dolimov N. D.		
21.	Hasanov H. H.		
22.	Zokirov K. Z.		
23.	Akromhojayev A. N		
24.	Mavlonov G` A.		
25.	Xamroboyev I. H.		
26.	Abdullayev X. M.		

2-topshiriq; Qadimgi dunyo geografiyasida O'zbekiston hududing o'rganilganligi holatiga ta'rif bering. Bu davrda O'zbekiston tabiati haqida qanday manbalar mavjud. Qadimgi muqaddas kitoblardan bo'lgan "Avesto" da qanday ma'lumotlar yozilgan. Bu davrda qanday mamlakatlar mavzud bo'lgan. O'zbekiston tabiati haqida yunon xitoy olimlaridan kimlar ma'lumot bergan.

3-topshiriq; O'zbekiston tabiati haqidagi geografik tasavvurlarning o'rta asrlarda rivojlanishida o'lka tabiati haqda Xitoy, Arab va mahalliy olimlar tamonidan qanday manbalar yozib qoldirilgan. IX-XII-asrlarda O'zbekiston hududi geografiyasi qanday rivojlandi.

4-topshiriq; O'zbekiston tabiati haqidagi geografik tasavvurlarning XVIII-asrda va XIX-asrning birinchi yarimda rivojlanishi xonliklar davrida mahalliy olimlar va ruslarning geografik tatqiqotlariga tavsif bering. XVIII-asrda O'zbekiston hududiga ekspeditsiyalar uyushtirilishi natijasida qayerlaning geografiyasi, tarixi va etnografiyasiga oid to'plandi. XIX-asr boshlarida O'zbekiston hududiga ko'plab ekspeditsiyalar uyushtirilishi natijasidan qanday geografik asarlar yaratildi, uyushtirilgan ekspeditsiyalardan qanday maqsadi ko'zlangan edi.

5-topshiriq; Geografik tasavvurlarning O'zbekiston hududida mustamlaka davrida rivojlanishi (1850-1917y). 1860-1870-yillarda O'zbekiston hududida qanday o'zgarishlar bo'ldi. Rus olimlarning o'rganilayotgan davrda O'zbekiston

hududining organilishiga qo'shgan hissasi nimalardan iborat bo'lgan (I.B. Mushketov, P.P.Semyonov- Tyanshanski, A.P.Fedchenko va boshqalar). 1911-1915-yillarda olib borilgan tatqiqot ishlari haqda nimalar bilasiz.

6-topshiriq; Sobiq ittifoq davrida O'zbekiston tabiatini o'rganish asosan qanday yo'nalishda olib borildi. Fanlar akademiyasi va SAGU olimlarning xizmatlari nimalardan iborat bo'ldi. O'zbekiston tabiati va tabiiy boyliklarini o'rgangan ekologik- geograf olimlardan kimlarni bilasiz.

7-topshiriq; Mustaqillik yillarda O'zbekistonda geografiyaning taraqqiyoti.

a) O'zbekistonda ishlab chiqilib, qabul qilingan ustivor fan yo'nalishlari dasturlari haqda nimalarni bilasiz.

b)Geografiya sohasida istiqbolli fundamental izlanishlarga etibor qanday.

c)XX-asrning ikkinchi yarmida fan, texnika taraqqiyoting xalq xo'jaligining jadal rivojlanishiga ta'siri oqibatida butun sayyoramizda ro'y berganidek respublikamizda ham geoekologik vaziyatlatda ro'y bera boshlagan o'zgarishlarni kimlar o'rgandilar.

d) Toponimikaning rivojiga katta hissa qo'shganlardan kimlarni bilasiz.

e) Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy yo'nalishi bo'lgan aholi geografiya masalalari bilan kimlar shug'ullangan va hozirgi kunda kimlar shug'ullanib kelmoqda.

g) Geografik xaritalar va o'quv atlaslarning nashrga tayyorlashda kimlarni xizmatlarini alohida qayd qilib o'tish joiz.

AMALIY MASHG'ULOT-3

Mavzu: O'zbekiston geologik tuzilishi.

O'zbekiston hududi o'zining geologik taraqqiyoti mobaynida juda ko'plab muhim paleotektonik va paleogeografik jarayonlarni o'tagan. Geosinklinal sharoitda sodir bo'ladigan jarayonlar bir necha marta takrorlangan.

Ko'p yillik olib borilgan geologik tekshirish ishlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston va unga qo'shni hududlar geologik tarixini yuqori arxey davridan


boshlab tiklash mumkin. Bu davrda hududda bir necha dengiz havzalari mavjud bo'lib, ularni ajratib turgan quruqliklarda terrigen, vulkanik va karbonat tog' jinslari to'plangan, bu tog' jinslari arxey davrining oxirlari va proterozoy davrining boshlanishida metamorfozlashgan.

Maqsad: O'zbekiston geologik tuzilishi. O'zbekiston hududining geologik taraqqiyot tarixi, hududdan tarqalgan turli yoshdagi tog' jinslari. Tarqalgan asosiy tektonik strukturalarni o'rgaish.

Dars jixosi: O'zbekistonning geologik va tektonik xaritasi ,O'zbekistonning tabiiy xaritasi, O'zbekiston geografik atlas.

1-topshiriq: Yozuvsiz kartada O'zbekistonning geologik kartasini tayyorlang va quyidagi savollarga javob yozing.

O'zbekiston hududining tekislik va tog'lar orasidagi botiqlarida to'rtlamchi davr yotqiziqlari keng tarqalgan? Nima uchun O'zbekiston hududining tog'li qismida otqindi jinslar keng tarqalgan?



2-topshiriq: Har bir talabaga berilgan gipsometrik profilga o`sha joyning geologik tuzulishini tushurish.

3-topshiriq: Stratigrafik va geoxronologik shkalani amaliyot daftariga ko`chirib yozing. Geotektonik elementlar (plita, geosinklinal va hokazolar) ni ma`nosini yozing.

4 -topshiriq. O'zbekiston geografik atlas (birinchi qism)da-gi tektonik xaritani tahlil qilib, yozuvsiz xaritaga tushiriladi. So'ngra quyidagi vazifalar bajariladi: tektonik kartadan Tyanshan epigersin orogeni bilan Turon epigersin plitasining chegarasi aniqlanib, yozuvsiz xaritaga tushiriladi. So'ngra Tyanshan epigersin orogendagi Chotqol — Qurama tizimiga kiruvchi eng katta antiklinor burmali strukturalar va (Piskom, Chotqol, Ugom, Qarjantog' va boshqalar) ular orasidagi sinklinoriylar (Piskom, Chotqol, Nanay, Ohangaron va boshqalar, shuningdek, Farg'ona botig'i) chegaralari bilan yozuvsiz xaritada, ular haqidagi ma'lumotlar esa amaliy ish daftarida qayd qilinadi;


Tyanshan epigersin orogenidagi Turkiston — Hisor strukturalari tizimiga kiruvchi eng katta antiklinoriylar (Turkiston, Nurota Arslontog', Tomditog', Bukantog', Quljatog', Zarafshon, Xisor, Boysun, Bobotog' va boshqalar) va ular orasidagi sinklinariylarni (Nurota — Quytosh, Samarqand, Surxon va boshq.) yozuvsiz xaritaga tushirib, tavsif beriladi;

Turon epidogersin plitasiga O'zbekistonning tekislik qismi kiradi, undabir qancha katta-kichik strukturalar (ko'ta-rilma va cho'kmalar) mayjud. Binobarin, ularni tektonik xaritadan topib, yozuvsiz xaritaga tushirib, tahlil qilib, amaliy ish daftarida qayd qilinadi;

5-topshiriq: Jadvalda O`zbekiston hududidagi tog` tizmalarining qaysi burmalanishiga mansubligini aks ettiring. Jadvalni davom ettiring.

Jadval -3

Kaleydon	Gersin	Al`p
Nurota	Turkiston	-



2– rasm. Seysmik zonalar chegaralari (V. I. Ulomov, 1982 y)

6-topshiriq. O'zbekiston hududida, ayniqsa, uning yangi tektonik (neotektonik) harakatlar faol davom etayotgan tog'li qismida tez-tez kuchli zilzilalarbo'lib turadi. Lekin so'nggi yillarda O'zbekiston tog'oldi (Toshkent, Nazarbek zilzilalari) va tekislik (Gazli zilzilasi) hududlarida ham kuchli zilzilalar kuzatilmoqda.

Buning sababini talabalar laboratoriyada O'zbekistonning yangi tektonik xaritasini tabiiy xaritasi bilan taqqoslab, tahlil qilib javob topishlari kerak.

7-topshiriq. Yozuvsiz xaritaga foydali qazilmalar (O'zbekiston geografik atlasini birinchi qismida) xaritasida ko'rsatilgan qazilma konlarini tushiring. So'ngra quyidagi vazifalarni bajaring:Yoqilg'i foydali qazilmalariga nimalar kiradi va ular qanday tog' jinslari orasida uchraydi?Rudali foydali qazilmalar guruhiga nimalar kiradi va ular qanday yo'llar bilan vujudga kelgan hamda qaysi tur yotqiziqlar orasida uchraydi?Rudasiz foydali qazilmalar guruhiga qaysi ma'danlar kiradi va ular O'zbekiston hududida qanday joylashgan, qaysi davr va qaysi jinslar orasida uchraydi?

AMALIY MASHG'ULOT -4

Mavzu: O'zbekiston relyefi


O'zbekiston hududi yer usti tuzilishi jihatidan ikkita katta qismga, ya'ni tog'li va tekisliklarga bo'linadi. Bu qismlar o'z maydonlarining katta-kichikligi bilan bir-biridan keskin farq qiladi. O'zbekiston hududining 78,2 % ga yaqini tekislik, qolgan 21,8% qismini esa tog'lar egallaydi. Bu qismlarning chegaralari nihoyatda egri-bugri bo'lib, tog'larning ba'zi bir tizmalari tekislik qismining ichkarisiga surilib kirgan, ayrim joylarda tekislik ham tog' tizmalari orasiga qo'ltiq shaklida kirib qolgan.

O'zbekistonning shimoli-sharqiy qismida G'arbiy Tyanshanning tog' tizmalari joylashgan. Bu tog' tizmalar biri ikkinchisiga yondosh holda shimoli-sharqdan janubi-g'arb tomonga cho'zilib ketgan. Ularning hammasi shimoli-sharqda Talas Olatoviga borib qadaladi. Talas Olatovi G'arbiy Tyanshanning baland tog'laridan biri bo'lib, uning eng baland cho'qqisi, dengiz sathidan 4488 m balandlikka ko'tarilgan va Manas nomini olgan. Bu tizma chuqur daryo vodiylari va tog' oraliq botiqlarini bir-biridan ajratib turadi.

Maqsad: O'zbekiston relefining xilma-xilligi. O'zbekistonning sharqiy va janubi-sharqiy qismidagi tog' tizmalari va oraliq botiqlari. O'zbekiston relefining shakllanishida yangi tektonik harakatlar, erozion, gravitatsion, karst, eol va boshqa jarayonlarning roli. O'zbekistonning tog'li qismidagi balandlik mintaqalariga xos relief shakllari. O'zbekiston tekislik qismi relefining xilma-xilligi, qum massivlari, ko'l tekisliklari, qadimgi daryo o'zanlari, deltalar va boshqalarni o'rganish.

Dars jixozi: O'zbekistonning geologik va tektonik xaritasi, O'zbekistonning tabiiy xaritasi, O'zbekiston geografik atlas.

1 -topshiriq. O'zbekistonning yozuvsiz kartasiga tog'lar, qirlar, tekisliklarni rangli qalam bilan bo'yab tushuring va nomlarini yozib qo'ying (Tabiiy kartasi). Ko'llar, daryolar, kanallar nomini yozing.



3 – rasm. O`zbekistonning orografik chizmasi.

Tizmalar: 1- Talas olatovi, 2-Ugom, 3- Qorjontog`, 4- Piskom, 5- Ara-shon, 6- Qizilnura, 7- Qurama, 8- Mug`ultog`, 9- Molg`uzor, 10- Chumqortog`, 11- Nurota, 12- G`obduntog`, 13- Qoroqchitog`, 14- Oqtog`, 15- Qorator`, 16- Chaqilqalon. 17- Qoratepa, 18- Ziyoviddin-Zirabuloq 19- Sumsar-Shertog`, 20- Osmontosh, 21-Beshnov, 22- Eshak Maydon. 23- Xontaxta, 24- Bobo Surxon, 25- Boysuntog`, 26- Ko`xi - tang, 27-Bobotog`, 28- Quljuqtog`, 29- Ovminzatog`, 30- Tomditog`, 31-Etimtog`, 32- Bukantog`, 33- Sulton Vays.

Qirlar: 34- Qoplanqir, 35-Qorabovur. **Botiqlar:** I- Toshkent Mirzacho`l. P- Farg`ona, III-Sangzor-Nurota, IV - Zarafshon, V- Kitob-Shaxrisabz, VI-Sherobod-Surxondaryo, VII-Oyoqog`itma, VIII- Mingbuloq, XI-Qoraxotin, X- Asakaovdan, XI- Borsa-kelmas. XII-Sariqamish.

O`zbekistonning tabiiy kartasiga ilova

Jadval-4

№	Tabiiy ob`ektlar	O`rtacha balandligi, m	Eng baland cho`qqisi, m
I	Tizmalar:		
1	Talas Olatovi	4488m	
II	Tog` oraliq botiqlar:		
1	Toshkent – Mirzacho`l	250	300
III	Tekisliklar:		
1	Qizilqum cho`li	60	300
IV	Botiqlar:		
1	Mingbuloq	-12	

Jadvalni davom ettiring.

2-topshiriq.: O`zbekiston qazilma boyliklarini, qabul qilingan belgilardan foydalanib, yozuvsiz kartaga tushuring va ularni quyidagi jadval ko`rinishida amaliyot daftariga yozing.

Jadval -5

Konning nomi qanday geologik yotqiziqlar orasida joylashgan	Nima olinishi	Qaysi viloyatda

3-topshiriq.: O`zbekiston orografiyasini yaqqol tushunish uchun uning bir qismi bo`ylab (masalan 42^o sh. k.) g`arbdan sharqqa qarab gipsometrik profil ishlash kerak. Buning uchun avval har bir talaba o`ziga berilgan kenglikda uchraydigan asosiy ob`ektlardan (tog`, balandliklar, vodiylar, tekisliklar va h. k. larning) nomini va absolyut balandligini yozib chiqishi lozim va mashtablarni aniqlash lozim. Vertikal mashtab ob`ektning balandligini ifodalaydi: 1 sm = 200 yoki 500 m. Gorizontal mashtab bir obyekt bilan ikkinchi obyektning orasini ko`rsatadi: 1 sm = 200 km yoki 400 km.

4-topshiriq: O`zbekistonning tabiiy kartasiga O`zbekistonning tog` tizmalari, qirlar, botiqlar, tekisliklar, cho`kmalar ro`yxatini ilova qiling va ularga oid ma`lumotlarni har bir tizmaning o`rtacha absolyut balandligi va eng baland cho`qqilari va h. k. ni yozing.

5-topshiriq: O`zbekistonning tekislik qismi re`lyefning xususiyatiga ko`ra qanday qismlarga bo`linadi va quyidagi topshiriqlarni bajaring

- Ustyurt to`lqinsimon baland tekisligi haqida to`liq ma`limot bering.
- Orol sariqqamish botig`i qayerda joylashgan va u haqda qanday ma`limotga egasiz.
- Amudaryoning hozirgi zamon va harakatdagi deltasi haqda nimalarni bilasiz.
- Oqcha daryo va sariqqamish deltalari haqda ma`lumot bering.
- Qizilqumdagi asosiy re`lyef shakillari: pasttekisliklar, yassi va past tog`lar, qum re`lyef shakillari hamda botiqlari haqda ma`lumot bering.

6-topshiriq: O'zbekistonda joylashgan tog' sistemalarini xaritadan ajrating; CHotqol –Qurqma, Nurota-Turkiston, Hisor-Zarafshon tog' sistemalariga qaysi tizmalar kirishini aniqlang.

7-topshiriq: O'zbekistondagi eng katta tog' oraliq botiqlarini xaritadan ajrating va ular haqdagi ma'lumotlarni amaliy ish daftariga yozing.

AMALIY MASHG'ULOT -5

Mavzu: O'zbekiston iqlimi

O'zbekiston iqlimining tarkib topishida uning yer usti tuzilishi-relyefi ham ta'sir etadi. O'zbekiston xududining shakli va janubi tog'lar bilan o'ralgan bo'lib, g'arbi va shimoliy qismi ochik. Shu sababli uning hududiga shimoldan, shimoli-garbdan va g'arbdan esuvchi sovuq havo massalari bemalol kirib keladi. Aksincha, respublikamiz janubiy qismida Paropamiz kabi tog'larning mavjudligi iliq, tropik havo massalarining kirib kelishiga to'siq bo'ladi.

Jadval - 6

Iqlim hosil qiladigan omillar				
Fizik omillar		Geografik omillar		
Quyosh radiatsiyasi	Atmosfera sirkulyatsiyasi	Geografik o'рни	Yer yuzasining holati	Antropogen omillar

O'zbekiston iqlimi kontinental, quyi mo'tadil va subtropik iqlim mintaqasiga kirib, respublika boy agroiqlim resursiga ega kunlar yoki vegetatsiya davri quyi Amudaryoda 190-200 kun, Farg'ona vodiysida 210-225 kun, Toshkentda 200-210 kun, O'zbekistonning janubida 230-270 kundur. Mana shu sovuqsiz kunlar harorat umumiy yig'indisi 4500-5500⁰ S haroratni tashkil qiladi. Mana shunday iqlim sharoitida issiq sevar, uzoq vegetasiya davrini hohlovchi subtropik o'simliklar o'sishga ekinlar etkazib berish imkoniyatiga egadir. Yana eng muhimi, 1 yerdan 1 yilda 2-5 marta hosil olish imkoniyatiga egadir.

Quyosh nur sohib turadigan davr, soat hisobida

7- jadval

Manzillar	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII	Yilligi
Toshkent	114	125	170	235	316	361	395	372	305	236	156	104	2889
Fargona	96	130	143	200	286	312	347	344	302	221	115	103	2599
Samarkan	105	132	162	217	309	363	392	370	306	233	167	121	2877
Kitob	127	136	139	191	263	322	344	3-25	283	216	138	119	2603
Termiz	144	149	136	244	326	362	390	358	312	264	183	141	3059
To'rtkul	95	133	180	235	328	373	347	374	316	234	173	114	2952
Chimboy	94	125	171	237	314	362	384	360	302	244	163	94	2850

Maqsad: O'zbekiston iqlimining shakllantiruvchi asosiy omillari. Quyosh radiatsiyasi, radiatsiya balansining yil bo'yicha va yil fasllarida o'zgarishi. Havo massalarining xususiyatlari. Iqlimning shakllanishida uning yer yuzasini va yer yuzasi holatini ta'siri. iqlimga antropogen omilning ta'siri. Yanvar, iyul va yillik izotermalarning joylanishi, taqsimlanishi. Yog'inlarning hududiy taqsimlanish va uning relefiga ta'siri. Qor qoplami va uning taqsimlanishi. Shamollar. Iqlim resurslari. Atmosferaning ifloslanishida antropogen omillarning ta'siri va uni muhofaza qilish kabi tushunchalarni o'rganish.

Dars jixozi: O'zbekistonning iqlim xaritasi ,O'zbekistonning tabiiy xaritasi, O'zbekiston geografik atlas.

1-topshiriq: O'zbekistonning yozuvsiz kartasida hududda yillik yog'in miqdorini rangli qalamlarda bo'yab ko'rsating.

a) Qizil rangli chiziq bilan iyul oyining va qora chiziq bilan yanvar oyining izotermalarni aks ettiring.

Yurik shaharlar yoniga absolyut minimum (qora) va maksimum (qizil) havo haroratlarini yozib qo'ying.

b) Qizil strelkalar bilan iyul oyidagi asosiy shamollar yonalishini, qora strelkalar bilan yanvar oyidagi shamollar yonalishini ko'rsating.

c) Ko`k chiziq bilan quyoshning yil davomida necha soat nur sochib turishini tushiring – 2600 – 2800, 2800 – 3000, 3000 – undan ko`p.

d) 4 – amaliy ishda boshlangan kesmaga yog`in – sochin miqdori, bug`lanish miqdori, harorat haqidagi ma`lumotlarni tushiring.

e) Yozuvsiz kartada O`zbekistonnig agroiklim kartasini tayyorlang.

2-topshiriq: O'zbekiston hududida Quyosh issiqligining (radiatsiyasining) taqsimlanishi nimalarga bog'liq. Talabalar laboratoriyada har xil adabiyotlardan, xaritalardan, iqlim ma'lumotnomalaridan foydalanib va «Umumiy Yer bili-mi»dan olgan bilimlariga tayangan holda Quyosh issiqligining taqsimlanishiga ta'sir etuvchi quyidagi omillarga qisqacha tavsif berishlari kerak:

- a) Yer bilan Quyosh orasidagi masofaga;
- b) Quyosh nurining atmosferadagi o'tish yo'li uzunligiga;
- c) Yer yuzasiga kelayotgan quyosh nurining tushish burchagiga;
- d) Quyoshning yoritish davri uzunligiga;
- e) Yer yuzasi holatiga;
- f) Yer yuzasi havosining (atmosferaning) bulutli dara-jasiga.

3-topshiriq: Tarqoq radiatsiyaning yalpi radiatsiyaga nisbatan (7-jadval ma'lumotlaridan foydalanib) 60° — 70° shimoliy kenglikdagi holati bilan O'zbekiston joylashgan kengliklardagi holatini bir-biriga taqqoslab, quyidagilarni tushuntirib bering:

Tarqoq radiatsiyaning yalpi radiatsiyaga nisbati (%).

Kengliklar (grad.)	Oylar												Yillik
	I	II	III	IV	V	V I	VII	VIII	IX	X	XI	XII	
70-90	-	56	59	61	69	65	61	56	59	60	60	-	61
60-70	59	57	56	54	55	53	50	51	54	56	58	60	
40-50	45	41	42	39	39	38	37	37	38	41	42	49	41
30-40	34	35	34	33	32	3	30	30	29	30	31	33	32
						0							

a) nima uchun qutbiy kengliklarda tarqoq radiatsiya Quyoshdan kelayotgan yalpi radiatsiyaning 55—50% ni tashkil etgan holda bu ko'rsatkich O'zbekiston hududida 32—41% dan oshmayd?

b) jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston hududi joylashgan kengliklarda tarqoq radiatsiya miqdori qish oylarida katta, yozda, aksincha, nisbatan kam, buning sababi nimada?

4-topshiriq: O'zbekiston geografik atlasidagi (birinchi qism) quyosh radiatsiyasi xaritasidan foydalanib, quyidagi shaharlar orqali o'tgan chiziqlar bo'ylab yillik yalpi quyosh radiatsiya miqdorining o'zgarishini aniqlang:

- a) Toshkent—Jizzax—Samarqand—Shahrisabz—Termiz;
- b) Qarshi — Buxoro — Urganch — Nukus — Mo'ynoq;
- d) Guliston—Qo'qon—Farg'ona—Andijon—Namangan;
- e) Tomdi — Zarafshon — Navoiy — Buxoro — Qorako'l.

5-topshiriq. Nima uchun va qanday omillar ta'sirida O'zbekiston hududida yer yuzasi bir xil isimaydi?


6-topshiriq: O'zbekistonda yilning turli fasllarida Quyosh-ning tushki balandligini o'zi turar joyi yoki o'qiyotgan shahari misolida aniqlash. Bu topshiriqni hal qilish uchun talabalar quyidagi vazifalarni bajarishlari kerak:

a) laboratoriyada O'zbekistonning biror joyida, xususan, Toshkent shahrida teng kunliklarda (21- mart va 23- sentabrda) tush vaqtida Quyoshning gorizontdan balandligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi: $A = 90^\circ - \varphi$ —

Bu yerda: h —ma'lum joyning kengligi;—Quyoshning tushda gorizontdan balandligi. Toshkentda teng kunliklarda tushda Quyoshning gorizontdan balandligini bilmoq uchun, eng avvalo, geografik xaritalardan uning geografik kengligini (Toshkent 41° shm. kenglikda joylashgan) aniqlab olinadi. So'ngra yuqoridagi formulaga solinadi: $h = 90^\circ - 41 = 49^\circ$. Demak, Toshkentda teng kunlikda Quyoshning gorizontdan balandligi 49° boiadi;

b) Toshkentda yozgi (22- iyun) va qishki (22- dekabr) Quyosh turish vaqtida uning tushdagi gorizontdan balandligini aniqlashda quyidagi formuladan foydalaniladi: $h = 90^\circ - \varphi \pm \delta$.

Bu yerda: h — Quyoshning tushda gorizontdan balandligi; φ — geografik kenglik; δ — quyoshning og'ishi, ya'ni $23^\circ 27'$ dir¹. Chunki yozgi quyosh turishi vaqtida Quyosh ko'proq shimoliy yarim sharni yoritadi. Shu sababli «+» (quyoshning og'ishi)



4-rasm O'zbekistonning iqlim kartasi

oldiga «+» qo'yiladi, aksincha, qishki quyosh turishida u janubiy yarim sharni yoritadi va «5» oldiga «-» qo'yiladi. Masalan, Toshkentda yozda (21- iyunda)

Quyoshning tushdagi gorizontdan balandligi ($h = 90 - 41^\circ + 23^\circ 27' = 72^\circ 27'$) $72^\circ 27'$ bo'ladi. Aksincha, qishda (22-dekabrda) Quyoshning tushda gorizontdan balandligi ($h = 90 - 41^\circ - 23^\circ 27' = 25^\circ 33'$) $25^\circ 33'$ bo'lib, kunning uzunligi 9 soat 11 daqiqaga teng bo'ladi.

Talabalar yuqorida ko'rsatilgan usul bilan Samarqand, Qarshi, Termiz va Nukus shaharlarida yilning turli fasllarida Quyoshning tushki gorizontdan balandligini aniqlashlari kerak.

7-topshiriq: 8-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, Toshkent, Farg'ona, Termiz va To'rtko'l shaharlarida Quyosh nur sochib turish davrini soat hisobida oylar bo'yicha aks ettiruvchi diagramma tuzing. Bunda diagrammaning go-rizontal o'qiga oylar, vertikal o'qiga Quyosh nur sochib turish davri (soat hisobida) ko'rsatiladi. So'ngra ularni bir-biriga taqqoslab, nima uchun Quyosh nur sochib turish davri Termizda Farg'ona, Namangan va Toshkentga nisbatan ko'pligi tushuntirib beriladi. Nima uchun Quyosh Farg'onaga nisbatan Namanganda ko'proq nur sochib turadi, sababini bilib oling.

9-jadval.

O'zbekistonda Quyosh nur sochib turish davri (soat hisobida).

Stansiyalar	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII	Yiffi gi
Toshkent	114	125	170	235	316	316	395	372	305	236	156	104	2889
Farg'ona	96	130	143	200	286	312	347	344	302	221	115	103	2599
Samarqand	105	132	162	217	309	363	392	370	306	233	167	121	2877
Kitob	127	136	139	191	263	322	314	325	283	216	137	111	2603

Termiz	144	149	186	244	326	362	390	358	312	264	8 18 3	9 14 1	3059
To'rtko'l	95	133	180	235	328	373	347	374	316	234	17 3	11 4	2952
Chimboy	94	125	171	237	314	362	360	360	302	244	16 3	94	2850
Jizzax	98	104	137	206	297	349	384	364	290	230	14 4	10 8	2711
Namangan	125	129	163	218	272	306	339	338	292	231	15 6	10 2	2671
Taxiatosh	112	135	183	236	324	359	379	358	316	259	17 1	10 6	2937
Churuk	96	130	164	246	329	350	371	358	298	219	23 6	97	2794

'Yozgi va qishki Quyosh turishi vaqtida tushda Quyosh ekvatorida emas balki tropik ustida, ya'ni $23^{\circ}27'$ kenglikda 90° burchak hosil qilib tik tushadi.

O'zbekiston tekislik qismidan tog'ga tomon ko'tarilgan sari har 100 m da harorat o'rtacha $0,6^{\circ}$ ga pasayadi. Vazifa: quyidagi balandliklar dengiz sathiga tenglashtirilsa, ularning o'rtacha yillik harorati necha gradus bo'ladi?

- 4643m o'rtacha yillik harorat $4,2^{\circ}$ bo'lsa;
- 3309 m o'rtacha yillik harorat $15,4^{\circ}$ bo'lsa;
- 1115 m o'rtacha yillik harorat $16,6^{\circ}$ bo'lsa;
- 974 m o'rtacha yillik harorat $10,5^{\circ}$ bo'lsa;
- 150 m o'rtacha yillik harorat $22,5^{\circ}$ bo'lsa

AMALIY MASHG'ULOT-6

Mavzu: Yog'inlar, yil fasillari

O'zbekistonda yog'in-sochini Atlantika okeani ustida shakllangan nam havo massalari olib keladi. Yog'in sochin miqdori O'zbekiston hududida joyning qaysi kenglikda joylashganligiga, tog' tizmasining qanday joylashganligiga, yonbag'irlari ekspozitsiyasiga, joyning mutlaq balandligiga va boshqa orografik xususiyatlariga bog'liq ravishda notekis taqsimlangan.

O'zbekiston o'zi joylashgan kengliklardagi boshqa xususiyatlarga nisbatan bu yerda yoz ancha issiq, qishi esa sovuqroq bo'lganidan yil fasillari bizda o'zgachadir. Fasillarning boshlanish va tugash muddatlari, ob-havosi o'zga xos. Xususan yoz uzoq 4-5 oy davom etadi, qishi esa qisqa, betakror bo'ladi.

Maqsad: Quyosh radiatsiyasi, radiatsiya balansining yil bo'yicha va yil fasllarida o'zgarishi. Havo massalarining xususiyatlari. Iqlimning shakllanishida uning yer yuzasini va yer yuzasi holatini ta'siri. iqlimga antropogen omilning ta'siri. Yanvar, iyul va yillik izotermalarning joylanishi, taqsimlanishi. Yog'inlarning hududiy taqsimlanish va uning reliefiga ta'siri. Qor qoplami va uning taqsimlanishi. Shamollar. Iqlim resurslari. Atmosferaning ifloslanishida antropogen omillarning ta'siri va uni muhofaza qilish kabi tushunchalarni o'rganish.

Dars jixozi: O'zbekistonning iqlim xaritasi, O'zbekistonning tabiiy xaritasi, O'zbekiston geografik atlas.

1-topshiriq: O'zbekiston hududida yog'inlarning oylar va yil fasllarida taqsimlanish qonuniyatlari haqida yetarli tasavvurga ega bo'lish uchun quyidagilarni bajarish zarur:

a) Toshkent, Navoiy, Sherobod, Farg'ona, Qo'qon, Andijon, Nukus, Churuk (Ustyurt) nuqtalarida yog'inlar oylar bo'yicha taqsimlanishining alohida-alohida diagram-masini tuzing. Bunda diagrammaning gorizontal o'qida oylar, vertikal o'qida yog'in miqdori ko'rsatiladi. So'ng ma'lum nuqtada qaysi oyda yog'in ko'p, qaysi oyda kam tushishi sababi harorat bilan taqqoslab tahlil qilinadi;

b) ilovadagi 2-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, Toshkent, Qo'qon, Andijon, Samarqand, Navoiy, Qarshi, Termiz, Nukus shaharlarida va Ustyurt (Churuk)da yog'inlarning yil fasllari bo'yicha taqsimlanishining aylanma diagrammasini ishlash kerak. Bunda aylanmani (doira) 100% deb olinib, yil fasllaridagi yog'in miqdori ajratilib, har xil rangda beriladi. So'ngra nima sababdan va qanday omillar ta'sirida yoz faslida Qo'qon, Termiz, Samarqand va Toshkentda yog'in juda kam tushgan holda Nukus va Churuk (Ustyurt)da nisbatan ko'proq tushishligini izohlab bering.

2-topshiriq: Iqlim xaritalari va ma'lumotnomalaridan foydalanib, Toshkent, Guliston, Kattaqo'rg'on, Qarshi, Urganch shaharlarida va Ustyurt platosida nisbiy namlikni quyidagi tenglama yordamida aniqlang:

Bu yerda: N — nisbiy namlik; a — absolyut namlik yoki bir metr kub havoning to'yinishi uchun zarur bo'lgan suv bug'i; b — havoning to'yinishi uchun zarur bo'lgan suv bug'i. Misol keltiramiz, ma'lum haroratda havoning absolyut (mutlaq) namligi 8,0 mm, havoning maksimal to'yinishi uchun zarur suv bug'lari 10,0 mm bo'lsa, unda havoning nisbiy namligi: $N = \frac{a}{b} = 80\%$ bo'ladi.

3-topshiriq: Chotqol, Guliston, Samarqand, Qarshi, Urganch meteorologik stansiyalaridagi namlik defitsenti (havoning maksimal to'yinishi uchun zarur bo'lgan suv bug'lari bilan absolyut namlik orasidagi farq)ni aniqlang. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanasiz: $D = E - N$.

Bu yerda: D — namlik defitsenti; E — ma'lum haroratda havoning to'yinishi uchun zarur bo'lgan suv bug'larining miqdori; N — absolyut namlik. Masalan, ma'lum haroratda havoning maksimal to'yinishi uchun zarur bo'lgan suv bug'i simob ustunining 19,1 mm ini tashkil etsa, absolyut namlik esa 17,2 mm bo'lsa, unda ($D = 19,1 - 17,2 = 1,9$) namlik defitsenti 1,9 mm bo'ladi.

4-topshiriq: Qo'llanmaning ilova qismida berilgan ma'lumotlardan, iqlim xaritalaridan, ma'lumotnomalardan foydalanib, Chinoz, Chimyon, Qo'qon, Navoiy, Sherobod, Xiva, Tomdi nuqtalaridagi namlik koeffitsiyenti quyidagi tenglama yordamida hisoblanadi

Bu yerda: ***K*** — namlik koeffitsiyenti; ***R*** — yog'in miqdori mm hisobida; ***E*** — mumkin bo'lgan (potensial) bug'lanish, mm hisobida.

5-topshiriq: Nukus—Tomdi — Qo'qon — Andijon — Namangan nuqtalaridan o'tgan to'g'ri chiziq orqali iqlim profilini tuzing.

6-topshiriq: Tomdi— Navoiy— Kattaqo'rg'on— Qarshi— G'uzor— Dehqonobod — Sherobod — Termiz nuqtalaridan o'tgan chiziq orqali iqlim profilini tuzing.

7-topshiriq: O'quv qo'llanmadan, iqlim xaritalaridan hamda ushbu qo'llanma oxirida berilgan ilovadagi ma'lu-motlardan foydalanib, O'zbekiston hududiga qishda va yozda esuvchi havo oqimlarini aniqlab, bir-biriga taqqoslab, ularga tavsif berish. Bunda quyidagi holatlarga e'tibor berish kerak:

a)qishda O'zbekiston hududiga qaysi yo'nalishdan qanday havo oqimi esadi va umuman havo sirkulyatsiyasi necha foizni tashkil etadi?

b)yozda qaysi yo'nalishdan havo oqimlari esadi, ularning xususiyatlari umumiy havo oqimining necha foizini tashkil etadi?

d)qishda va yozda esuvchi havo oqimlarining qaysi yo'nalishdan keluvchi turi yog'in beradi, qaysi turi esganda havo ochiq va sovuq yoki iliq bo'ladi?

e)O'zbekiston hududiga qachon va qaysi faslda siklon va antisiklon havosi esadi hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

8-topshiriq: Ilovadagi 1-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, Chorvoq, Toshkent, Guliston, Qo'qon, Samarqand, Kitob, Termiz, Shofirkon, Nukus, Churuk kabi nuqtalarda sovuq bo'lmaydigan kunlarni aks ettiruvchi diagramma tuzing.

Bunda diagrammaning gorizontal o'qiga yuqorida ko'rsatilgan nuqtalar, vertikal o'qiga esa sovuq bo'lmaydigan kunlar qo'yiladi. So'ngra o'sha nuqtalarda nima uchun va qaysi omillar ta'sirida sovuq bo'lmaydigan kunlar miqdori har xil ekanligiga izoh bering.

AMALIY MASHG'ULOT – 7-8

Mavzu: O'zbekistonning ichki suvlari, daryolari

O'zbekiston daryolari berk havzaga kiradi. Okeanlarga, dengizlarga quyilmaydi. Daryo tarmoqlarining zichligi bir xil emas, masalan, tekislik qismida har bir kv. km. ga 2 m, adirlarda 70 – 80 m, tog'li hududda 140–150m To'g'ri keladi. Tog'li hududda Norin, Zarafshon, Chirchiq, Qoradaryo kabi daryolar juda sersuv. Tekislikda yog'in kam va bug'lanish katta bo'lgani uchun oqim tez shakllanmaydi, shuning uchun u yerda daryolar kam.

Amudaryo, Sirdaryo, Qashqadaryo, Surxondaryo, Ugom, Ko'ksuv, Pskom daryolari asosan, tog'lardan suv oladi.

2. Daryolarning tuyinishi V. L. Shul's tomonidan 4 tipga bo'lingan:

1. Muzlik – qor suvlaridan to'yinadigan
2. Qor – muzlik suvlaridan tuyinadigan
3. Qor suvlaridan
4. Qor – yomg'ir suvlaridan tuyinadigan daryolar

Daryolar tekislikda - 10 - 12⁰ qishda 0⁰ dan past bo'lganda muzlaydi. Yoppasiga muzlamaydi, tekislikda vodiysi kengaygan, sayoz va yoyilib, sekin oqadigan qismi muzlaydi. Oktyabrdan boshlab muzlar oqib yurishi kuzatiladi.

Maqsad: O'zbekiston ichki suvlari haqida umumiy ma'lumotlar. Daryo havzalari. Daryo tarmoqlari va ularning zichligi, hudud bo'ylab joylashishi. Daryolarning to'yinishi, o'rtacha ko'p yillik oqimi, yillik oqimining o'zgaruvchanligi. Daryolarning loyqa oqizqlari. Daryolarning muzlashi. Eng muhim daryolarning gidrologik tavsifi. O'zbekiston ko'llarining hudud bo'yicha joylashish qonuniyatlari va ular botiqlarining kelib chiqishi jixatidan guruhlariga bo'linishi. O'zbekiston suv omborlari va kanallarini o'rganish.

O'zbekiston yer osti suvlari haqida umumiy ma'lumot. Grunt suvlari, artezion havzalar va ularning joylanish qonuniyatlari. Karst suvlari. Mineral va termal suvlar. yer osti suvlarining xo'jalik ahamiyati. yer osti suvlarini muhofaza qilish. O'zbekiston

hududidagi hozirgi zamon muzliklari, ularning hududiy joylanishi, asosiy turlari va xo'jalik ahamiyatini talabalarga o'rgatish.

Dars jixozi: O'zbekistonning ichki suvlari xaritasi ,O'zbekistonning tabiiy xaritasi, O'zbekiston geografik atlas.

1-topshiriq: O'rta Osiyo tabiiy xaritasidan foydalanib, O'zbekiston yozuvsiz xaritasiga daryolarni tushirib, nomlarini yozib, suv yig'adigan havzalarini aniqlab, qayerdan, necha metr balandlikdan boshlanishini, qayerga borib quyilishini bilib olish.

2-topshiriq: O'zbekiston atlas I-tomidagi haritalardan va adabiyotlardan foydalanib, quydagi jadvallarni tuzing.

Jadval - 10

Eng yurik daryolar	Daryo-ning uzunligi km	Qayerdan boshlanishi	Qayerga quyilishi	Hafza-sining maydoni ming km ²	Yullik oqim miqdori km ³	O`rt. yillik suv sarfi m <sup>3</sup> /cm	To`yinish tipi
1	2	3	4	5	6	7	8

3-topshiriq: O'zbekiston tabiiy xaritasi yoki atlasidan foydalanib, uning biror daryosi (Chirchiq daryosi) misolida daryo shoxobchalari (turlari)ning zichligini aniqlash.

Bu topshiriqni bajarish uchun talabalar quyidagi formuladan foydalanishlari kerak:

Bu yerda: ***D*** —daryo shoxobchalarining zichligi; ***V*** —havzadagi barcha katta-kichik daryolarning uzunligi (km hisobida); ***F*** — havza maydoni (km hisobida).

4-topshiriq: . Talabalar O'zbekiston tabiiy xaritasi yoki atlasidan foydalanib, biror daryoni, xususan, Chirchiq daryosining uzunligini sirkul, ho'llangan ip yoki kurvimetr yordamida o'lchashlari mumkin.

Eslatma: daryoning boshlanish joyidan quyar yerigacha bo'lgan masofa sirkulda uch marta o'lchanib, chiqqan o'rtacha miqdor asos qilib olinadi va u xarita masshtabiga ko'paytiriladi. Chiqqan qiymat o'sha daryo uzunligini bildiradi. Sirkul bo'lmasa, ho'llangan ip daryoning boshlanishdan quyar yerigacha yopishtirilib, uch marta

o'lchanadi, chiqqan o'rtacha qiymat o'sha xarita masshtabiga ko'paytiriladi. Agar sirkul va ip bo'lmasa, daryo uzunligini kurvimetr yordamida o'lchash mumkin.

5-topshiriq: Talabalar laboratoriyada O'zbekiston tabiiy xaritasidan foydalanib, Chirchiq daryosining egri-bugriligini aniqlashlari kerak. Daryoning egri-bugriligi deb, daryoning umumiy uzunligi boshlanish joyi bilan quyar yerini birlashtiruvchi eng qisqa masofaga aytiladi.

Chirchiq daryosining egri-bugriligini aniqlash uchun qu'yidagi formuladan foydalaniladi:

Bu yerda: K — daryoning egri-bugriligi koeffitsiyenti, D — daryo yoki o'lchanilayotgan daryo qismining uzunligi; E — daryoning boshlanish va quyilish joyini birlashtiruvchi to'g'ri (eng qisqa) chiziqning uzunligi. Shu yo'l bilan Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Amudaryo va Sirdaryo o'zanining egri-bugriligini aniqlang.


6-topshiriq. O'zbekiston tabiiy xaritasi yoki atlasidan foydalanib, Chirchiq daryo tizimining geografik sxemasini tuzish. Buning uchun, avvalo, Chirchiq daryosining chap va o'ng irmoqlarining uzunligi xarita masshtabi yordamida o'lchanib, quyidagi jadval to'ldiriladi:

Jadvalni to'ldirib bo'lgach, Chirchiq daryosining gidrografik tizimi tuzilishi chizilib, irmoqlari nomi yoziladi.

Jadval - 11

Chirchiq daryosining irmoqlari	Irmoqlarning uzunligi, km		Asosiy daryoning quyilish joyidan irmoqlar quyiladigan joygacha bo'lgan masofa, km	Asosiy daryoning boshlanish joyidan irmoqlar quyiladigan joygacha bo'lgan masofa, km
	Chap	O'ng		

7-topshiriq. O'zbekiston daryolarining, xususan, Zarafshon daryosining qiyaligini aniqlash. Buning uchun O'zbekiston tabiiy xaritasidan Zarafshon daryosining boshlanadigan va quyiladigan joyini topib, dengiz sathidan necha metr balandligi topiladi.



Chirchiq daryosining gidrografik

8-topshiriq. Gidrologik ma'lumotnoma, xarita va atlaslardan hamda o'quv qo'llanmadan foydalanib, Sirdaryo bilan Amudaryoni qiyosiy tasvirlang. Tasvirlash uchun quyidagi taxminiy reja tavsiya etiladi.

1. Daryo havzasining geografik o'rni va umumiy tavsifi (boshlanishi, quyilishi, irmoqlari).
2. Daryo havzasining iqlimiy xususiyatlari.
3. Daryo qanday manbalardan to'yinadi?
4. Daryo suv rejimi.
5. Daryoning loyqaligi.
6. Daryoning muzlashi.
7. Daryodan qaysi kanallar boshlanadi?
8. Daryoda qanday suv omborlari va GES lar qurilgan?
9. Daryoning xalq xo'jaligidagi ahamiyati.
10. Daryo bo'yida qanday shaharlar joylashgan?
11. Boshqa daryodan qanday gidrologik xususiyatlari jihatidan farqlanadi?

9-topshiriq. O'zbekiston daryolari tog'li qismida qishda harorat tekislikka nisbatan davomli va sovuq bo'lsa-da, yoppasiga muzlamaydi, buning sababini tushuntirib bering.

10-topshiriq. Nima sababdan Oloy va Pomir tog' tizma-laridan boshlanuvchi Amudaryo va Surxondaryo suvlari G'arbiy Tyanshan tog' tizmasidan boshlanuvchi Chirchiq va Ohangaron daryolari suvlariga nisbatan loyqaligini tushuntirib bering.

11-topshiriq. O'zbekiston daryolari qaysi manbalardan (to'yinish turlari) suv to'plashligini aniqlab, quyidagi jadvalning bo'sh qolgan joylarini to'ldiring.

O'zbekiston ichki suvlariga daryolar, ko'llar, yer osti suvlari| muzliklardagi

Jadval -12.

O'zbekiston daryolarining to'yinish turlari.

<i>Daryolar</i>	<i>To'yinish turlari</i>				
	<i>Muz-qor suvlaridan</i>	<i>Qor-muz suvlari-dan</i>	<i>Qor suvlari dan</i>	<i>Qor-yom-g'ir suvlaridan</i>	<i>Suv eng ko'p bo'ladigan oylar</i>
Amudaryo Sirdaryo Norin Qoradaryo Zarafshon Chirchiq Ohangaron Sangzor Qashqadaryo Surxondaryo Sherobod					

suvlar, suv omborlari, kanal va ariqlardagi suvlar kiradi. Ichki suvlar respublika iqlim xususiyatlariga emas, balki uning tabiatining boshqa unsurlariga, xususan relyefiga ham bog'liqdir. Relyef ichki suvlarga, jumladan oqim hosil bo'lish jarayoniga bevosita hamda tabiiy - geografik omillar, ayniqsa iqlimiy omillar orqali bilvosita ta'sir etadi.

O`zbekistondagi ko`llar daryo vodiylarida joylashgan qayir ko`llar, tog`li qismida joylashgan to`siq (to`g`on) ko`llar, morena ko`llar va tektonik ko`llarga bo`linadi. Ko`llar soni 5360 tadan ortiq. Buni 100 % deb olsak, shundan 56,5 %i tekisliklarda, 43,5% tog`li qismida joylashgan.

Asosiy ko`llar Orol, Arnasoy, Aydar, Tuzkon, Dengizko`l, Somonko`l, Kuntako`l, Sho`rko`l, Qoraqir, Xojibko`l, Axsikentko`l, Damko`l, Sariqamish, Karp, Ziirko`l, Abilko`l, Oqko`l, Sudoch`e, Bo`zatovko`l, Zokirko`l, Tubonko`l va boshqalar. Suv omborlari – Qayroqqum, Tuyamuyin, Chorbog`, Andijon, Kattako`rg`on, Janubiy Surxon, Chimqurg`on, Quyimozor, Pachkamar, Tuyabo`g`iz, Karkidon, Uchqizil va boshqalar.

12-topshiriq: Xaritalardan va adabiyotlardan foydalanib O`zbekiston ko`llari haqidagi jadvalni tuzing.

Jadval -13

Ko`llar-ning nomi	Maydoni ming. km <sup>2</sup>	O`zbekis- tonning qaysi qismida joylash- gan	Hosil bo`lishi- ga ko`ra tipi	O`rt. va eng chuqur yeri	Sho`r- ligi	Hojalik- dagi aha miyati
1	2	3	4	5	6	7

Xaritalardan va adabiyotlardan foydalanib O`zbekiston suv omborlari haqidagi jadvalni tuzing.

Jadval -14

Eng yurik suv ombor lari	Qaysi daryoga qurilgan. Geografik o`rni	Suv sig`imi mln. m ³	Maydoni km ²	Qaysi hududlar, nima maqsadda
1	2	3	4	5

O'zbekistonnig yer osti suvlarining umumiy hajmi, qaysi qatlamlar orasida joylashganligi, to'yinish tipi, nima maqsadlarda ishlatishi kabi ma'lumotlarni amaliyot daftariga yozing.

O'zbekiston hududida joylashgan muzliklarni nomi, maydoni, qayerda joylashganligi haqida amaliyot daftarida ma'lumot bering.

AMALIY MASHG'ULOT-9

O'zbekiston tuproq qoplami.

Respublikamiz tekislik qismida qoldiq tog'lar, balandliklar, vodiylar, botiqlar mavjud bo'lib, ularda tuproq hosil bo'lish jarayoni bir-biridan farq qiladi.

O'zbekiston hududining yer osti suvlari nisbatan chuqur joylashgan tekisliklarida sur-qo'ng'ir, tog' oldi tekisliklari va adirlarda bo'z, tog'larida jigar rang, qo'ng'ir tog'-o'rmon kabi avtomorf tuproq turlari joylashgan. Aksincha, yer osti suvlari yuza bo'lgan joylarda gidromorfli tuproqlar -o'tloq, botqoq, botqoq-o'tloq kabi tuproq turlari mavjud.

O'zbekistonda arid iqlim sharoitida vujudga kelgan sur-qo'ng'ir tusli, taqir, qumli kabi tuproqlarida chirindi miqdori nihoyatda kam bo'lib, tuproqning usti qatlamida 1,0% atrofida mavjud.

O'zbekiston hududida yana sug'oriladigan joylarda madaniy sug'oriladigan tuproqlari turi vujudga kelgan. Chunki kishilar ming yillab tuproqni sug'orib, har xil o'g'itlar solib, ishlov berib tabiiy xususiyatlarini o'zgartirib yuborgan. Bunday tuproq turlariga voha-o'tloq, o'tloq - voha, voha-bo'z kabi tuproqlar kiradi.

Maqsad: O'zbekiston hududida tuproqlarning tarqalish qonuniyatlari. Tuproqlarning zonal, provinsional va balandlik mintaqalanish. Asosiy tuproq turlari va ularning hududiy tarqalishi. Tuproq eroziyasi, melioratsiyasi. Tuproqlarni muhofaza qilish muammolarini o'rganish.

Dars jixosi: O'zbekistonning tuproqlari xaritasi ,O'zbekistonning tabiiy xaritasi, O'zbekiston geografik atlas.

1-topshiriq: Yozuvsiz xaritada O'zbekistonda tarqalgan tuproq tiplarini ko'rsating. Bunda buyoq qalamlar yordamida tekisliklarning tog` oldi tekisliklari va past tog` oldilarining, tog` oldi va tog`larning tuproqlari, sug`oriladigan tuproq va zaif rivojlangan toshloq tuproqlar aks ettirilishi lozim. Kartada vohalar chegaralarini bering.

2-topshiriq: Tuzayotgan kompleks kesmangizga (Amaliy ish – 4 da boshlagan) tuproq bo'yicha ma'lumotlarni tushiring.

3-topshiriq: Xaritalardan va adabiyotlardan foydalanib O'zbekiston tuproqlari haqidagi jadvalni tuzing.

Jadval-15

Tuproq tipi	Qaysi zonada va mintaqaga mansub	Chirindi miqdori va uning qalinligi	Qaysi absolyut balandlikda tarqalgan	Maydoni ming. ga	O'zbekistonning qaysi qismida tarqalgan	Qanday q/x –gi ekinlari etishtiriladi
1	2	3	4	5	6	7

4-topshiriq:: Yozuvsiz kartada qadimdan dehqonchilik qilib kelinayotgan yerlar, yangi o'zlashtirilgan yerlarni shartli belgilar bilan tasvirlang.

5-topshiriq O'zbekiston tuproq xaritasini tahlil qilib, hudud bo'yicha qanday tuproqlar mavjud, ularning qanday joylashganligini qaniqlang

6-topshiriq: O'zbekistonning relief, iqlim va tuproq xaritalarini bir-biriga taqqoslab, nima uchun va qanday omollar ta'sirida uning tekislik qismida tuproqlar sho'rlanganligini aniqlang.

7-topshiriq: O'zbekiston tuproqlari eroziyaga uchrashidan tashqari har xil omillar ta'sirida ifloslanib, zaharlanib, tuproq tarkibidagi mikroorganizmlar miqdori kamayib ketadi. Har xil adabiyotlardan va P.Baratovning «O'zbekiston tabiiy

geografiyasi» o'quv qo'llanmasi ma'lumotlaridan foydalanib, tuproqni ifloslovchi omillarni bilib oling.

8-topshiriq O'zbekiston tuproq xaritasini tahlil qilib, balandlik mintaqalari yani cho'l adir tog' yaylov mintaqalarida qanday tuproq tarqalgan.

9-topshiriq O'zbekiston tekislik hududid tarqalgan tuproqlar ya'ni sur qo'ng'ir, qumli cho'l, taqir va taqirli sho'rxok botqoq o'tloq voha alliyuvial tuproqlariga ta'rif bering.

AMALIY MASHG'ULOT -10

O'zbekiston o'simliklari

Tabiiy-geografik sharoitga bog'liq holda o'simlik turlari respublika tekislik-cho'l qismidan uning tog'li qismi tomon o'zgarib boradi.

O'zbekiston hududining ko'pchilik qismidagi tabiiy sharoitning o'simliklar o'sishi uchun noqulay bo'lishiga qaramay (yozi issiq, quruq, seroftob, qishi nisbatan sovuq) o'simliklarning 120 oilaga mansub bo'lgan 3700 turi mavjud. Vaxolanki, Qrim yarim orolida 2000, Uzoq Sharqda 1966, Oltoyda esa 1787 o'simlik turi bor.

O'zbekiston hududida o'simliklar uning geomorfologik tuzilishiga bog'liq holda quyidan yuqoriga ko'tarilgan sari o'zgarib boradi.

Biz respublika o'simliklarining balandlik mintaq buyicha o'zgarishini K. 3. Zokirov taqdim etgan quyidagi mintaqalanish buyicha beramiz: cho'l, adir, tog' va yaylov.

Maqsad: O'zbekiston hududining o'simliklarga boyligi, xilma-xilligi va joylanish qonuniyatlari. O'simlik qoplamining zonal, provinsional va balandlik mintaqalanishi. O'simlik resurslari. O'simliklarni muhofaza qilib, ular resurslaridan oqilona foydalanish va qayta tiklash muammolari. Turi, miqdori kamayib, noyob turga aylangan ba'zi o'simliklarni muhofaza qilishda O'zbekiston «Qizil kitobi»ning ahamiyatini o'rganish.

Dars jixozi: O'zbekistonning o'simliklari xaritasi, O'zbekistonning tabiiy xaritasi, O'zbekiston geografik atlas.

1-topshiriq: Yozuvsiz kartada O'zbekiston o'simliklari kartasini tayorlang. O'simliklarni tarqalishini o'rganganing va qonuniyatlarini belgilab amaliyot daftariga yozing.

2-topshiriq: Tuzayotgan kompleks kesmangizga (Amaliy mashg'ulot – 4 da boshlagan) o'simliklar bo'yicha ma'lumotlarni tushiring.

3-topshiriq: O'zbekiston tabiiy xaritasidan cho'l min- taqasiga kiruvchi hududlarni aniqlab, O'zbekiston geografik atlasidagi o'simlik xaritasining shartli belgilari va undagi ma'lumotlar yordamida cho'l mintaqasida qanday o'simliklar turi mavjudligini aniqlang

4-topshiriq: O'zbekiston tabiiy, iqlimiy va o'simliklar xaritalarini tahlil qilib, o'simliklar cho'l sharoitiga qanday moslashganini hamda nima uchun va qanday omillarga ko'ra o'simliklarning ildizlari uzun, tanasi semiz, sertuk, barglari ignasimonligini tushuntirib bering. Quyidagi jadvalni to'ldiring.

Jadval-16

Tabiat zonolari	Absolyut balandligi	Asosiy tuproq tiplari	Asosiy o'simliklari	Asosiy hayvonlari
1	2	3	4	5

5-topshiriq: O'zbekiston geografik atlasidagi o'simliklar xaritasidan va ushbu qo'llanmadagi ma'lumotlaridan foydalanib, respublika hududida ko'proq uchraydigan archa, yong'oq, pista, saksovul, burgan, shuvoq, juzg'on va boshqa o'simliklar tarqalgan joylarni aniqlang. O'zbekistonda keng tarqalgan o'simliklar maydoni aylanma diagrammada beriladi. Unda aylanma diagramma 100% deb olinib, o'simliklar hissasi ajratib ko'rsatiladi. O'zbekistonda o'sadigan dorivor o'simliklar to'g'risadagi ma'lumotlarni quyidagi jadvalni to'ldirish yoli bilan aniqlang

№	O`simliklar nomi	O`sadigan yeri	Qaysi maqsadda ishlatiladi	Muhofazaga muhtojligi

6-topshriq: O'zbekistonning tabiiy va o'simlik xaritalarini bir-biriga taqqoslab tahlil qilib, tabiat mintaqalarining quyi va yuqori chegaralarini aniqlab, yozuvsiz xaritaga tushiriladi. So'ngra har bir balandlik (cho'l, adir, tog', yaylov)da mintaq uchun xarakterli va keng tarqalgan o'simliklar ro'yxatini tuzib, yozuvsiz xaritaga ilova qilinadi.

AMALIY MASHG'ULOT -11

O`zbekiston hayvonot dunyosi.

O`zbekistan hayvonlari tabiatning harakatchan unsuri hisoblanib, geografik muxitning ajralmas bir qismi sifatida respublikamiz landshafti tarkibiga kiradi.

O`zbekiston faunasining o`ziga xos tomoni shundayki, uning turlari ko`p bo`lib, sutemizuvchilarning 97 turi, sudralib yuruvchilarning 57 turi, qushlarning 410 turi mavjud. O`zbekistonda hayvonlardan sut emizuvchilarni jayron, sayg`oq, burama shoxli tog` echkisi, Buxoro bug`usi va boshqalar "Qizil kitob"ga kiritilgan. Hayvonlarning ba`zilari terisi uchun tulki, chiyabo`ri, bo`rsiq va boshqalar ovlanadi. 1950 yildan boshlab ondatralar tayyorlanmoqda. Ularni daryo bo`ylarida suvli joylarda ko`paytirilmoqda. O`zbekistonda 60 xilga yaqin qush ovlanadi.

O`zbekiston hayvonlari paleoarktika zoogeografi oblastning Markaziy Osiyo kichik oblastiga kiradi. Respublika hayvonot dunyosi juda qadimiyligi bilan ajralib turadi. Ba`zi hayvon turlari respublika hududining o`zida paydo bo`lsa, ba`zi turlari Turkistonning boshqa joylaridan o`tgan. O`zbekiston hududida paydo bo`lgan hayvon turlariga ingichka barmoqli yumronqoziq, ko`k sug`ur, Bobrinskiy qushoyog`i, xujasavdogar, qum bug`ma iloni, Turkiston gekkoni, Turkiston agamasi, katta kurakburun baliqlar, Orol shipi va boshqalar kirib, ular boshqa joylarda deyarli uchraymaydi.

Maqsad: O'zbekiston hayvonot dunyosiga umumiy tasnif. Hayvonlarning hudud bo'yicha tarqalish qonuniyatlari. Zonal, provinsial va balandlik mintaqalanishi. Hayvonlar tabiatning harakatchan elementlari va muhitga moslashuvi. Hayvon omillarning ta'siri. Turi va miqdori kamayib ketayotgan hayvonlar. Hayvonlarni muhofaza qilib, qayta tiklash va bu soxada «Qizil kitob»ning ahamiyati. Qimmatli hayvon turlari iqlimlanish soxasidagi ishlar. O'zbekistonning tabiati, tabiiy boyliklari va ularni muhofaza qilish. O'zbekiston tabiiy resurslarining asosiy turlari va ularning hozirgi xolati. O'zbekiston tabiatiga insonning ta'siri. Tabiatning ifloslanishining salbiy oqibatlari. O'zbekiston tabiatini muhofaza qilishning chora-tadbirlari va asosiy yo'nalishlari. O'zbekiston landshaftlari va noyob tabiiy yodgorliklari. Tabiiy yodgorliklarning turlari, ularni xisobga olish va muhofaza qilish masalalari. O'zbekiston tabiatini muhofaza qilishda qo'riqxonalar, xalq bog'lari va buyurtmaxonalarining ahamiyati. Respublikadagi mavjud qo'riqxonalar, xalq bog'lari va buyurtmaxonalari, ularning turlari va joylashishini o'rganish.

Dars jixozi: O'zbekistonning hayvonot dunyosi xaritasi ,O'zbekistonning tabiiy xaritasi,O'zbekiston respublikasi atlas.

1-topshiriq. O'zbekiston hayvonlari qaysi zoogeografik mintaqaga va uning kichik hududiga mansubligini aniqlang. Ular kelib chiqishi (paydo bo'lishi) jihatidan quyida- gicha:

a)Turkiston hududining o'zida paydo bo'lgan hay- vonlar;

b)Yevropa — Sibirdan kirib kelgan hayvonlar;

d)Afrika va Old Osiyodan kirib kelgan hayvonlar;

Hindi — Ximolaydan kirib kelgan hayvonlar

2-topshiriq: Yozuvsiz kartada O'zbekistonning zoogeografik kartasini tayorlang. Hayvonlarni tarqalishini o'rganganing va qonuniyatlarini belgilab amaliyot daftariga yozing. O'zbekistondagi zakaznik va qo'riqhonalarni belgilab nomini amaliyot daftariga yozing.

3-topshiriq. O'zbekiston hayvonlari yozdagi jazirama issiq va quruq cho'l sharoitiga nisbatan salqin tog' sharoitiga qanday moslashgan, nima uchun cho'l hayvonlari bir yilda ikki marta passiv hayot kechiradi?

4-topshiriq. O'zbekiston geografik atlasining (birinchi qismi) dagi xaritalar ma'lumotlaridan foydalanib, sutemizuvchilar, sudralib yuruvchilar, kemiruvchilar turiga xos bo'lgan hayvonlar ro'yxatini tuzib, amaliy ishlar daftarida qayd eting.

5-topshiriq. O'zbekistondagi ayrim hayvon va qushlarning tarqalishini ko'rsatuvchi karta-chizmani tahlil qiling. Ovlanadigan hayvon va qushlarning hudud bo'yicha geografik tarqalishini aniqlang.

6-topshiriq. Cho'lga xos sutemizuvchilar, sudralib yuruvchilar va hasharotlarning eng muhim turlari haqida qisqacha ma'lumot bering. O'zbekiston tabiiy xaritasidan adir, tog' va yaylov mintaqalariga qayerlar kirishini aniqlab, har bir mintaqaga xos hayvonlar ro'yxatini tuzing.

7-topshiriq «O'zbekiston qizil kitobi»ga kirgan sutemizuvchilar, sudralib yuruvchilar va qushlarning ro'yxatini tuzing.

AMALIY MASHG'ULOT -12

Mavzu: O`zbekistonning tabiati, tabiiy boyliklari va ularni muhofaza qilish.

O`zbekiston tabiatini muhofaza qilishning chora - tadbirlari va asosiy yunalishlari. O`zbekiston tabiatini muxofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish uchun:

- O`zbekiston hududida atrof - muxit ifloslanishining oldini olish, ekologik vaziyat eng yomon mintaq va shaharlarda muhit holatini tubdan yaxshilashga erishish, aholi salomatligi uchun o`ta xavfli moddalar miqdorini yol quyiladigan darajaga tushirishni ta`minlash;

- tabiiy resurslarning iste'molini barcha bo'g'inlarida, extiyot qilib, tejab, sanoatning kam chiqindili texnologiyasini joriy etib, chiqindisiz kompleks ishlab chiqarishga o'tish;
- korxonalarda xom ashyoni tejab, ulardan kompleks foydalanish, ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilarini qayta ishlash maqsadida eski dastgohlarni yangi zamonaviy dastgoxlar bilan almashtirishga erishish;
- ishlab chiqarish kuchlarining tabiatni muhofaza qilish qoidalariga asoslanib joylashtirish;
- tabiiy muhitning xolati va ifloslanishini ekologik nazorat ostiga olib, kuzatishning yagona avtomatlashgan tartibini yaratish;
- tabiat unsurlari barcha turlarining tabiiy xususiyatlari va rang-barangligini o'z holicha saqlashga erishish;
- tabiiy yodgorliklarni hisobga olish va ularning, o'z holicha saqlashga erishish;
- aholi orasida, ayniqsa, bog'chalarda, o'rta va oliy o'quv yurtlarida tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan ta'lim va tarbiyani kuchaytirish;
- tabiatni ifloslanishidan kelib chiqayotgan salbiy oqibatlarni, ayniqsa, kishilarning salomatligiga ta'sirini chuqur o'rganib, uning oldini olish choralarini zudlik bilan ishlab chiqish;
- xalq xujaligi rahbarlari va mutaxassislariga tabiatni muhofaza qilish ta'limini berishga aloxida e'tiborni kuchaytirish maqsadida soha malakasini oshirish institutlarida «tabiatdan oqilona foydalanish va muxofaza qilish» mavzusi buyicha kurslar tashkil qilish;
- ifloslantiruvchi moddalarni tabiatga chiqarishga yo'l qo'yilgan darajadan oshirilganligi xamda tabiiy boyliklardan samarasiz foydalanganligi uchun korxonalar, tashkilotlar, birlashmalar, xo'jaliklar va boshqa tashkilotlardan jarima olish. Aksincha, tabiatni muxofaza qilish qonunlariga rioya qilgan korxona va tashkilotlarni rag'batlantirish tartibini amalga oshirish.

- keng xalq ommasini tabiatni muhofaza qilish ishidan xabardor etish va unga jalb etish maqsadida radio, televizorda muntazam targ'ibot ishlarini kuchaytirish.

O'zbekiston atmosferasini toza saqlash uchun quyidagi chora-tadbirlarni ko'rish va amalga oshirish kerak:

Yaqin yillarda Toshkent, Chirchiq, Navoiy, Farg'ona, Angren, Olmaliq, Andijon, Quqon, Namangan, Bekobod kabi shaharlarda va boshqa hududlarda noqulay vaziyatlarni yuzaga keltirayotgan korxonalarni chiqindilarini tartibga solish.

Maqsad: O'zbekistonning tabiati, tabiiy boyliklari va ularni muhofaza qilish. O'zbekiston tabiiy resurslarining asosiy turlari va ularning hozirgi xolati. O'zbekiston tabiatiga insonning ta'siri. Tabiatning ifloslanishining salbiy oqibatlari. O'zbekiston tabiatini muhofaza qilishning chora-tadbirlari va asosiy yo'nalishlari. O'zbekiston landshaftlari va noyob tabiiy yodgorliklari. Tabiiy yodgorliklarning turlari, ularni xisobga olish va muhofaza qilish masalalari. O'zbekiston tabiatini muhofaza qilishda qo'riqxonalar, xalq bog'lari va buyurtmaxonalari, ularning turlari va joylashishini o'rganish.

Dars jixozi: O'zbekistonning tabiatini muhofaza qilish xaritasi ,O'zbekistonning tabiiy xaritasi,O'zbekiston respublikasi atlas.

1-topshiriq.O'zbekiston geografik atlasidan (1-qism) va o'quv qo'llanmaning ma'lumotlaridan foydalanib, atmosfera havosi va suv resurslarini ifloslovchi tabiiy va sun'iy omillar ro'yxatini tuzib, qaysi shaharlar atmosferasi va qaysi daryo suvlari qay darajada ifloslanganligini aniqlash.

2-topshiriq.O'zbekiston yozuvsiz xaritasiga qo'riqxonalar, milliy (xalq) bog'lar, buyurtma va parvarishxonalarni to'ldirib, ularning bir-biridan farqini bilib olish. Ma'lumotlaridan foydalanib, har bir qo'riqxonada muhofaza qilinadigan o'simlik va hayvon turlari ro'yxatini tuzing.

3-topshiriq. Tabiat yodgorliklari muhofaza qilish xususiyatlari jihatidan geologik, paleontologik, geografik, biologik va arxeologik kabi turlarga bo'linadi. Vazifa, o'sha yodgorlik turlarida qanday tabiiy obyektlar muhofaza qilinadi. Amaliy ish daftariga o'quv qo'llanmadan va har xil manbalardan foydalanib, muhofaza qilinadigan tabiiy yodgorliklarni turlariga qarab ro'yxatini tuzish.

4-topshiriq: O'zbekiston geografik atlasidagi xaritalardan foydalanib, tuproq eroziyasiga sababchi bo'luvchi, o'simlik turlarining kamayib ketishiga ta'sir etuvchi va hayvonot olamiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda muhofaza ostiga olinadigan o'simlik va hayvonot turlari ro'yxatini tuzish.

5-topshiriq; O'zbekistondagi zakaznik va qo'riqxonalarni yozuvsiz kartada belgilab nomini yozing.

6-topshiriq; Har bir talaba yuqorida keltirilgan tadbirlar va choralardan kelib chiqib hohlagan yunalish bo'yicha referat tayyorlashi lozim

AMALIY MASHG'ULOT -13

Mavzu: O'zbekiston hududining rayonlashtirish tizimi.

L. N. Babushkin, N. A. Kogay O'rta Osiyoning bir qismi hisoblangan O'zbekiston hududini tabiiy geografik rayonlashtirishda quyidagi taksonomik birliklardan foydalanganlar: mamlakat – provinsiya – provinsiyacha – okrug – rayon – landshaft.

O'zbekiston hududining asosiy qismi Turon provinsiyasiga kiradi. Turon provinsiyasini tekislik va tog` oldi – tog`lik deb ikki provinsiyaga ajratadi. Tekislik provinsiyachasiga Ustyurt, Quyi Amudaryo, Qizilqum okruglarini, tog` oldi – tog`lik provinsiyachalariga Chirchiq – Ohangaron, Farg`ona, Mirzacho'l, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo okruglarini ajratamiz.

Mazkur tabiiy geografik rayonlashtirish o'lkamizni tabiiy geografik jihatdan batafsil o'rganishga yordam beradi.

Maqsad: Tabiiy geografik rayonlashtirish tabiiy geografiyaning eng muhim muammolaridan biri, rayonlashtirish toksonomik birliklari, tamoyillari, uslubiy masalalari. O'zbekiston tabiatining xilma-xilligi tabiiy geografik rayonlashtirishga sababchi bo'lgan omil ekanligi. O'zbekiston hududining rayonlashtirish tizimi. O'zbekiston hududida ajratilgan tabiiy geografik birliklar provinsial, ichki provinsiyalar, okruglar, rayonlar. O'zbekistonning tabiiy geografik birliklari, Markaziy Qozog'iston, Turon provinsiyalari, tekislik, tog' oldi va tog' kichik provinsiyalari. Tekislik kichik provinsiyalari: Ustyurt, Quyi Amudaryo, Qizilqum, Quyi Zarafshon, tog'oldi va tog' kichik provinsiyalari, Farg'ona, O'rta Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, G'arbiy Tyanshan, Turkiston-Nurota, Xisor-Zarafshon, Bobotog' okruglari va rayonlarning kompleks tabiiy geografik tavsifini o'rganish.

Dars jixosi: O'zbekistonning tabiiy geografik rayonlashtirish xaritasi ,O'zbekistonning tabiiy xaritasi,O'zbekiston respublikasi atlas.

1-topshiriq: Yozuvsiz kartada O'zbekistonning tabiiy geografik rayonlashtirish kartasini tayorlang. O'zbekistonni tabiiy geografik rayonlashtirish tarixini amaliyot daftariga yozing.

2-topshiriq: O'zbekistonni tabiiy geografik rayonlashtirish shemasini quyidagi jadvalni to'ldirish yoli bilan aniqlang.



5-rasm O'zbekistonning tabiiy geografik rayonlashtirish

№	Tabiiy geografik o`lka	Tabiiy geografik provinsiya	Tabiiy geografik provin siyacha	Tabiiy geografik okrug	Tabiiy geografik rayon

3-topshiriq. P.Baratov va M.Mamatqulovlarning «O'zbekiston tabiiy geografiyasi» (7-sinf o'quvchilari uchun darslik. «O'qituvchi» nashriyoti, Toshkent,) kitobidagi O'zbekiston hududini tabiiy-geografik rayonlashtirish karta chiz- masini yozuvsiz xaritaga tushirib bilib oling.

1. Chirchiq — Ohangaron rayoni.
2. Farg'ona rayoni.
3. Mirzacho'l rayoni.
4. Zarafshon rayoni.
5. Qashqadaryo rayoni.
6. Surxondaryo rayoni.
7. Qizilqum rayoni.
8. Quyi Amudaryo rayoni.
9. Ustyurt rayoni.

4-topshiriq. O'zbekiston hududini tabiiy-geografik rayonlashtirishning yuqorida qayd qilingan ikkala chizmasini bir- biriga solishtirib ko'ring. Ular orasidagi umumiylik va tafovutlar nimalardan iborat ekanligini aniqlang. Solishtirish chog'ida O'zbekistonning geologik, tabiiy, iqlimiy va tuproq-o'simlik xaritasi bo'lishi maqsadga muvofiq. Chunki rayonlashtirishda o'sha xaritalardagi ma'lumotlar qanchalik aks ettirilganligi bilib olinadi.

5-topshiriq. O'rta Osiyo tabiiy xaritasi bilan so'nggi vaqtda nashr etilgan tabiiy xaritasi va kosmosdan olingan rasmlarni bir-biriga taqqoslab, Orol dengizi

qirg'og'ida, xususan, Quyi Amudaryo tabiiy-geografik okrugi hududiga qarashli qirg'oq chizig'ida qanday o'zgarishlar yuz berganligini tahlil qiling.

AMALIY MASHG'ULOT -14

Mavzu: USTYURT OKRUGI

Ustyurt okrugi O'zbekistonning eng shimoliy – g'arbiy qismida joylashib, shimolda va g'arbda Qozog'iston bilan, Janubda Turkmaniston, sharqda esa Quyi Amudaryo okrugi va Orol dengizi bilan chegaralangan.

Ustyurt arid – denudasion plato hisoblanib, balandligi 100 – 200 m atrofida chinklar bilan o'ralgan. Ustyurt platosi geologik tuzilishi jihatdan epipaleozoy plitasining bir qismi hisoblanib, negizi paleozoy yotqiziqlaridan iborat, ustini qalin 3 – 4,5 km mezazoy va kaynozoy davrining cho'kindi jinslari qoplab olgan.

Maqsad: Ustyurt okrugini tabiiy geografik o'rnini, rel'efini, geologik tuzilishini, iqlimini, suvlarini, flora va faunasini, tabiatini muhofaza qilish masalalarini o'rganish.

Dars jixozi: O'zbekistonning tabiiy geografik rayonlashtirish xaritasi, O'zbekistonning tabiiy xaritasi, O'zbekiston respublikasi atlas. Ustyurt okrugini tabiiy geografik xaritasi.

1-topshiriq; Yozuvsiz kartada Ustyurt okrugini kartasini ishlang. Okrug hududida joylashgan tekisliklar, qumliklar, botiqlar va qoldiq qirlarni aniqlang. Ularni yozuvsiz xaritaga tushirib, nomlarini yozib qo'ying.

2-topshiriq; Ustyurt okrugini tabiiy geografik o'rnini, relyefini, geologik tuzilishini, iqlimini, suvlarini, flora va faunasini, tabiatini muhofaza qilish masalalarini amaliyot daftariga yozing.

3-topshiriq. O'zbekiston geografik atlas va qo'llanmalarda berilgan kartasxemalarini tahlil qiling. Ustyurt tabiiy-geografik okrugi hududi qaysi geologik davrda quruqlikka aylangan, qaysi davrda vujudga kelgan hamda oxirgi dengiz suvi qachon chekingan?

4-topshiriq. O'zbekistonning tabiiy, geologik, tektonik va eng yangi tektonik xaritalarini bir-biriga taqqoslab, tahlil qilib, quyidagilarga e'tibor bering:

a) geologik xarita yordamida Ustyurt tabiiy-geografik okrugining hududida uchrovchi tog' jinslarini aniqlab, ular qaysi era va davrlarga mansub ekanligini bilib oling;

b) tabiiy va tektonik xaritalarni bir-biriga taqqoslab, Qizilqum tabiiy-geografik okrugidagi orografik unsur- larning tektonik strukturalarga qanchalik mos kelishligini aniqlang;

d) Ustyurt tabiiy-geografik okrugi zaminidagi epigersin plitasi qanday joylashganligini (necha metr chuqurda joylashganligini) har xil manbalardan foydalanib aniqlang;

e) tabiiy xarita bilan eng yangi tektonik xaritalarni bir- biriga taqqoslab, okrug hududining qaysi qismi cho'kayotganligini aniqlang.

5-topshiriq. O'zbekiston geologik va qazilma boyliklar xaritasidan foydalanib, Ustyurt tabiiy-geografik okrugida qanday qazilma boyliklar mavjudligini va ular qaysi era va davr yotqiziqlari orasida uchrashligini aniqlab, yozuvsiz xaritaga tushiring.

6-topshiriq. Ustyurt tabiiy-geografik okrugi shimoldan janubga taxminan 5° ga cho'zilgan, binobarin, Quyosh uning hamma qismida ufqdan balandligi bir xil emas. Shimoliy va eng janubiy chekkalarida 22-iyun va 22-dekabrda hamda 21- mart va 23-sentabrda Quyoshning gorizontdan balandligini aniqlang.

8-topshiriq: O'zbekiston geografik atlasidagi iqlim xaritalaridan foydalanib, Ustyurt tabiiy-geografik okrugida iyul va yanvar izotermalarining joylashishini tahlil qiling. Nima uchun va qanday omillar ta'sirida iyul va yanvar haroratining janubi-g'arbdan shimoli-sharqqa tomon o'zgarib, pasayib borish sababini tushuntirib bering.

9-topshiriq: O'zbekiston geografik atlasidagi iqlimga oid xaritalarni tahlil qilib, Ustyurt okrugining eng shimoliy va janubiy qismlarida sovuq bo'lmaydigan davr qancha davom etishligini aniqlang. So'ngra uni Quyi Amudaryo va Quyi Zarafshon

tabiiy- geografik okruglarida sovuq bo'lmaydigan kunlar bilan taqqoslab, orasidagi farq sababini tushuntiring.

10-topshiriq: Ustyurt tabiiy-geografik okrugi hududida oqar suvlar (daryo va soylar) yo'q, sababini tushuntiring. Aksincha, yer osti suvlari mavjud. Okrug hududidagi artezian suv havzalarini yozuvsiz xaritaga tushirib, undan qanday maqsadda foydalanilayotganligini bilib oling.

11-topshiriq: O'zbekiston tuproq xaritasini tahlil qilib, nima sababdan Ustyurt tabiiy-geografik okrugi hududida tarqalgan sur qo'ng'ir, taqir, qumloq, qumli va boshqa tuproq turlarida chirindi miqdori juda kam hamda sho'rlanganligini aniqlang.

12-topshiriq: Qo'llanmalarda berilgan o'simliklar xarita chizmasidan hamda «Qizil kitob»ga kirgan o'simliklar ro'yxati berilgan jadvaldan foydalanib, Ustyurt tabiiy- geografik okrugi hududida keng tarqalgan o'simliklar turi ro'yxatini tuzing, «Qizil kitob»ga kirgan o'simliklar turlarini bilib oling. Nima sababdan okrug o'simliklarining ildizi uzun, sertuk, barglari ingichka, tanasi nisbatan semiz ekanligini tushuntirib bering.

13-topshiriq: Ustyurt tabiiy-geografik okrugining shimoldan janubga 58° sharqiy uzunlik bo'ylab, g'arbdan sharqqa xohlagan kenglik bo'ylab kompleks tabiiy-geografik profil tuzing. Unda tabiat unsurlarining bir-biriga bog'liqligiga, ayniqsa, o'simlik qoplami iqlimiy sharoitga qanchalik moslashganligiga alohida e'tibor bering.

AMALIY MASHG'ULOT -15

Mavzu: QUYI AMUDARYO OKRUGI

Okrug Qoraqum cho'li bilan Orol dengizi orasida joylashib, o'z ichiga Amudaryoning qadimiy va hozirgi zamon del'tasini oladi. Okrugni g'arbdan Ustyurt, janubdan O'ngizorti Qoraqum, sharqdan Qizilqum va Sultonuvays tog'lari, shimoldan esa Orol dengizi o'rab turadi. Maydoni 46 ming. kv. km tashkil etadi.

Relyefi asosan, qadimiy o`zanlar orasida nisbiy balandligi 60 – 80 m ga etadigan tepaliklar, marzalar, qoldiq tog`lardan iborat. Qoldiq tog`lardan Quyanchiq, Qorator, Qumbeltov, Jumirtov, Borlitov, Kuskantov, Qoshqantov, Beltov, Manqir, Tuzqir, Tarimqiya, Zangibobo va boshqalar.

Qadimiy daryo o`zanlari – Shortanboy, Kreyg – o`zak, Qora – o`zak, Kindiksoy, Qorako`lsoy, Ko`xnadaryo, Daryoliq, Daudan va boshqalar.

Okrug O`zbekistonning eng sovuq hududlaridan biri hisoblanadi. Yanvarning o`rtacha harorati – 4,5⁰, - 7,6⁰ S, eng past harorati - 33⁰ (Taxiatoshda), eng qurg`oqchil hududida yiliga 79 – 108 mm yog`in tushadi.

Maqsad: Quyi Amudaryo okrugini tabiiy geografik o`rnini, rel`efini, geologik tuzilishini, iqlimini, suvlarini, flora va faunasini, tabiatini muhofaza qilish masalalarini o`rganish.

Dars jixoz: O`zbekistonning tabiiy geografik rayonlashtirish xaritasi, O`zbekistonning tabiiy xaritasi, O`zbekiston respublikasi atlas. Quyi Amudaryo okrugini tabiiy geografik xaritasi.

1-topshiriq; Yozuvsiz kartada Quyi amudaryo okrugini kartasini ishlang.

2-topshiriq; Quyi amudaryo okrugini tabiiy geografik o`rnini, rel`efini, geologik tuzilishini, iqlimini, suvlarini, flora va faunasini, tabiatini muhofaza qilish masalalarini amaliyot daftariga yozing. Quyi Amudaryo okrugi tabiiy xaritasini tahlil qiling. Okrug hududidagi plato, qoldiq tog`lar, pasttekisliklar, Amudaryoning qadimgi va hozirgi o`zanlari, deltasi hamda Orol dengizining qurib qolgan qismini aniqlang. Aniqlangan orografik unsurlarni (tabiiy obyektlarni) yozuvsiz xaritaga tushirib, nomlarini yozib qo`ying.

3-topshiriq; O`zbekistonning paleogeografik karta sxemalarini tahlil qiling. So`ngra Quyi Amudaryo tabiiy-geografik okrug hududida qaysi davrda quruqlik bo`lgan, qaysi davrda uni suv bosgan va qaysi davrda yana quruqlikka aylanganligini aniqlang.

4-topshiriq; O`zbekiston geografik atlas (1-qismi)dagi tabiiy, geologik, tektonik va eng yangi tektonik xaritalarni bir-biriga solishtirib, tahlil qiling. So`ngra

Quyi Amudaryo okrugi orografik unsurlarning tektonik strukturalariga mos kelish yoki kelmasligini, qadimiy plitaning necha metr chuqurlikda joylashganligini, uning ustini qaysi davr yotqiziqlari qoplab olganligini aniqlang.

5-topshiriq; O'zbekiston tabiiy iqlim xaritalarini va ilovadagi jadval ma'lumotlarini qunt bilan o'rganib chiqib, Quyi Amudaryo tabiiy-geografik okrugi iqlimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlang, iyul va yanvar izotermalari qanday joylashganligini tahlil qiling. Havo harorati janub- dan shimolga qanday o'zgaradi? Yanvar harorati Quyi Amudaryo tabiiy-geografik okrugida O'zbekistonning boshqa okruglariga nisbatan qanday sabablarga ko'ra past? Orol suv sathining pasayishi okrug iqlimiga qanday ta'sir ko'rsat- moqda?

6-topshiriq; O'zbekiston geografik atlasidagi (1- qismi) iqlim xaritalari, xususan, shamollar yo'nalishini ko'rsatuvchi xarita ma'lumotlaridan foydalanib, Quyi Amudaryo tabiiy-geografik okrugi hududida yanvar oylarida ko'p esuvchi shamollar yo'nalishini aniqlang. Yozda va qishda ko'p esuvchi shamollar hudud iqlimiga qanday ta'sir ko'rsatadi? Nima sababdan okrug hududiga shimoli-sharqdan esuvchi havo oqimlari kelganda harorat pasayib, yog'in yog'maydi, aksincha, shimoli-g'arbdan esuvchi shamollar yog'in beradi, buning sababini tushuntirib bering.

7-topshiriq; O'zbekiston iqlim xaritasidan Quyi Amudaryo tabiiy-geografik okrugida yillik o'rtacha yog'in miqdorini aniqlang. Nima sababdan ushbu okrug hududida yog'in kam tushishini, aksincha, mumkin bo'lgan (potensial) bug'lanish yog'inga nisbatan 20 marta ko'pligini tushuntirib bering. Ma'lumotlar asosida To'rtko'l, Urganch, Nukus va Chimboyda yillik yog'in miqdorining fasllar bo'yicha taqsimlanish aylanma diagrammasini tuzing.

8-topshiriq; «Orol dengizi muammosi» degan mavzuda ma'ruza tayyorlang. Unda Orol dengizi suv sathining pasayish sabablariga, uning salbiy oqibatlariga, suv sathini optimal yuzada saqlashga qaratilgan chora-tadbirlarga alohida e'tibor berish zarur.

9-topshiriq; O'zbekiston tuproq va o'simlik xaritalarini taqqoslab, tahlil qilib, Quyi Amudaryo tabiiy-geografik okrugida qanday tuproq va o'simlik turlari mavjudligini, ularning qanday yo'llar bilan vujudga kelganligini aniqlang. Okrug tuproq-o'simlik turlarining o'ziga xos tomonlari nimalardan iborat, ular O'zbekistonning boshqa hududlaridagi tuproq-o'simlik qoplamidan qanday farq qiladi?

AMALIY MASHG'ULOT -16

Mavzu: QIZILQUM OKRUGI

Turon tekisligidagi eng katta cho'llardan biri bo'lgan qizil-qum asosan Amudaryo bilan Sirdaryo orasida joylashgan. Lekin Qizilqum okrugiga Qizilqum cho'lining O'zbekiston hududida joylashgan qismi kiradi.

Qizilqum okrugi shimoli-g'arbda Quyi Amudaryo okrugi bilan, janubi-sharqda Quyi Zarafshon okrugi bilan, sharqda esa Toshkent-Mirzachul okrugi bilan chegaralanadi. Okrugning janubi-g'arbi Turkmaniston, shimoli-sharqi Qozog'iston bilan bo'lgan davlat chegarasiga to'g'ri keladi.

Qizilqum janubi-sharqdan shimoli-g'arbgacha qarab pasayib boradi. Uning o'rtacha mutloq balandligi 200—300 m bo'lsa, janubi-sharqda 350—400 m, shimoli-g'arbda esa 90—100 m ga tushib qoladi.

Maqsad: Qizilqum okrugini tabiiy geografik o'rnini, rel'efini, geologik tuzilishini, iqlimini, suvlarini, flora va faunasini, tabiatini muhofaza qilish masalalarini o'rganish.

Dars jixozi: O'zbekistonning tabiiy geografik rayonlashtirish xaritasi, O'zbekistonning tabiiy xaritasi, O'zbekiston respublikasi atlasi. Qizilqum okrugini tabiiy geografik xaritasi.

1 -topshiriq: Yozuvsiz kartada Qizilqum okrugini kartasini ishleng.

Qizilqum okrugini tabiiy geografik o'rnini, relyefini, geologik tuzilishini, iqlimini, suvlarini, flora va faunasini, tabiatini muhofaza qilish masalalarini amaliyot daftariga yozing.

2-topshiriq. Amaliy mashg'ulot daftariga Qizilqum tabiiy- geografik okrugining konturini tushiring. Chegaralarini belgilab, chegaradosh davlatlar, viloyatlar nomlarini yozing. Paletka yordamida Qizilqum okrugi yer maydonini hisoblab chiqib, uni chegaradosh tabiiy-geografik okruglar yer maydonlari bilan taqqoslang.

3-topshiriq. Qizilqum tabiiy-geografik okrugining tabiiy xaritasini tahlil qiling. Okrug hududida joylashgan tekisliklar, qumliklar, botiqlar va qoldiq tog'larni aniqlang. Ularni yozuvsiz xaritaga tushirib, nomlarini yozib qo'ying. Nima uchun Qizilqum okrugida ko'chib yuruvchi qumliklar (barxanlar) asosan Amudaryo sohillari, quduq va aholi yashaydigan joylar atrofida joylashganligi sababini aniqlang.

4-topshiriq. O'zbekiston geografik atlas (1-qismi) va ushbu qo'llanmada berilgan kartasxemalarini tahlil qiling. Qizilqum tabiiy-geografik okrugi hududi qaysi geologik davrda quruqlikka aylangan, qaysi davrda tog'lar vujudga kelgan hamda oxirgi dengiz suvi qachon chekingan?

5-topshiriq. O'zbekistonning tabiiy, geologik, tektonik va eng yangi tektonik xaritalarini bir-biriga taqqoslab, tahlil qilib, quyidagilarga e'tibor bering:

c) geologik xarita yordamida Qizilqum tabiiy-geografik okrugining hududida uchrovchi tog' jinslarini aniqlab, ular qaysi era va davrlarga mansub ekanligini bilib oling;

d) tabiiy va tektonik xaritalarni bir-biriga taqqoslab, Qizilqum tabiiy-geografik okrugidagi orografik unsur- larning tektonik strukturalarga qanchalik mos kelishligini aniqlang;

d) Qizilqum tabiiy-geografik okrugi zaminidagi epigensin plitasi qanday joylashganligini (necha metr chuqurda joylashganligini) har xil manbalardan foydalanib aniqlang;

e) tabiiy xarita bilan eng yangi tektonik xaritalarni bir- biriga taqqoslab, okrug hududining qaysi qismi cho'kayotganligini aniqlang.

6-topshiriq. O'zbekiston geologik va qazilma boyliklar xaritasidan foydalanib, Qizilqum tabiiy-geografik okrugida qanday qazilma boyliklar mavjudligini va ular qaysi era va davr yotqiziqlari orasida uchrashligini aniqlab, yozuvsiz xaritaga tushiring.

7-topshiriq: Qizilqum tabiiy-geografik okrugi shimoldan janubga taxminan 6° ga cho'zilgan, binobarin, Quyosh uning hamma qismida ufqdan balandligi bir xil emas. Shimoliy va eng janubiy chekkalarida 22-iyun va 22-dekabrda hamda 21- mart va 23-sentabrda Quyoshning gorizontdan balandligini aniqlang.

8-topshiriq: O'zbekiston geografik atlasidagi (1-qism) iqlim xaritalaridan foydalanib, Qizilqum tabiiy-geografik okrugida iyul va yanvar izotermalarining joylashishini tahlil qiling. Nima uchun va qanday omillar ta'sirida iyul va yanvar haroratining janubi-g'arbdan shimoli-sharqqa tomon o'zgarib, pasayib borish sababini tushuntirib bering.

9-topshiriq: Qizilqum tabiiy-geografik okrugida yozda va qishda esuvchi havo oqimlarini aniqlang. Nima uchun qishda Qizilqum okrugi shu geografik kenglikda joylashgan O'rta va Quyi Zarafshon okrugiga nisbatan juda sovib ketadi?

10-topshiriq: O'zbekiston iqlim xaritasi yordamida Qizilqum tabiiy-geografik okrugida yillik yog'in miqdorining hudud bo'yicha taqsimlanishini tahlil qiling. Okrug hududiga yog'in nima uchun juda kam tushadi va uning miqdori qanday sabablarga ko'ra janubi-sharqqa tomon ko'payadi?

11-topshiriq: Qizilqum tabiiy-geografik okrugida yillik o'rtacha yog'in miqdorining oylar va yil fasllari bo'yicha taqsimlanish diagrammasini tuzing. Diagrammaning gorizontal o'qiga oylar, vertikal o'qiga yog'in miqdori (mm hisobida) qo'yiladi. Yog'inning yil fasllari bo'yicha taqsimlanishini aylana diagrammada bering. Unda aylana diagramma 100% deb olinib, fasllardagi yog'in miqdori (% hisobida) aylana ichida ajratib beriladi. So'ngra Qizilqum tabiiy-geografik okrugi hududida yozda g'arbiy havo oqimlari qishga nisbatan 2,5 marta ko'p esishiga qaramay, yog'in deyarli yog'maydi, sababini tushuntirib bering.

12-topshiriq: O'quv qo'llanma va iqlim xaritasidan foydalanib, Qizilqum tabiiy-geografik okrugi hududida yillik yog'in miqdori va bug'lanishiga oid ma'lumotlarni to'plab, tahlil qiling. So'ngra okrugning qaysi qismida namlik yetarli va qaysi qismida yetarli emasligini aniqlang. Okrug hududida mumkin bo'lgan

(potensial) bug'lanish miqdori yillik yog'inga nisbatan 15—20 marta ortiq, sababini tushuntirib bering.

13-topshiriq: O'zbekiston geografik atlasidagi iqlimga oid xaritalarni tahlil qilib, Qizilqum okrugining eng shimoliy va janubiy qismlarida sovuq bo'lmaydigan davr qancha davom etishligini aniqlang. So'ngra uni Ustyurt va Quyi Zarafshon tabiiy- geografik okruglarida sovuq bo'lmaydigan kunlar bilan taqqoslab, orasidagi farq sababini tushuntiring.

14-topshiriq: Qizilqum tabiiy-geografik okrugi hududida oqar suvlar (daryo va soylar) yo'q, sababini tushuntiring. Aksincha, yer osti suvlari mavjud. Okrug hududidagi artezian suv havzalarini yozuvsiz xaritaga tushirib, undan qanday maqsadda foydalanilayotganligini bilib oling.

15-topshiriq: O'zbekiston tuproq xartasini tahlil qilib, nima sababdan Qizilqum tabiiy-geografik okrugi hududida tarqalgan sur qo'ng'ir, taqir, qumloq, qumli va boshqa tuproq turlarida chirindi miqdori juda kam hamda sho'rlanganligini aniqlang.

16-topshiriq: Ushbu qo'llanmada berilgan o'simliklar xarita chizmasidan hamda «Qizil kitob»ga kirgan o'simliklar ro'yxati berilgan jadvaldan foydalanib, Qizilqum tabiiy- geografik okrugi hududida keng tarqalgan o'simliklar turi ro'yxatini tuzing, «Qizil kitob»ga kirgan o'simliklar turlarini bilib oling. Nima sababdan okrug o'simliklarining ildizi uzun, sertuk, barglari ingichka, tanasi nisbatan semiz ekanligini tushuntirib bering.

17-topshiriq: Qizilqum tabiiy-geografik okrugining shimoldan janubga 64° sharqiy uzunlik bo'ylab, g'arbdan sharqqa xohlagan kenglik bo'ylab kompleks tabiiy-geografik profil tuzing. Unda tabiat unsurlarining bir-biriga bog'liqligiga, ayniqsa, o'simlik qoplami iqlimiy sharoitga qanchalik moslashganligiga alohida e'tibor bering.

18-topshiriq: «Qizilqum tabiiy-geografik okrugining tabiiy boyliklaridan oqilona foydalanish» mavzusida ma'ruza tayyorlang. Bunda tabiiy boyliklardan qanchalik oqilona foydalanilayotganligiga, noratsional foydalanish oqibatida kelib

chiqayotgan salbiy o'zgarishlarga, xususan, qayta cho'llashish jarayoniga alohida e'tibor bering. Shuningdek, okrug tabiati muhofazasida Qizilqum qo'riqxonasining ahamiyati nimalardan iborat ekanligini yoritish kerak.

AMALIY MASHG'ULOT -17

Mavzu: Quyi Zarafshon okrugi

Zarafshon okrugining mutloq balandligi Samarqand shahri 727 m, Kattaqo'rg'on shahri 450 m, Navoiy shahri 347 m. Okrug paleogen, neogen, antropogen davr cho'kindi jinslaridan tarkib topgan. U Xazar yo'lagida torayib, so'ng Abusalim tepaligida kengayib, Shoptoli qishlog'ida janubi – g'arbga qarab kengayib Buxoro del'tasini hosil qiladi. Deltaning uzunligi 102 km. o'rtacha kengligi 50 – 55 km, eng keng eri 70 km.

Maqsad: Qizilqum okrugini tabiiy geografik o'rnini, rel'efini, geologik tuzilishini, iqlimini, suvlarini, flora va faunasini, tabiatini muhofaza qilish masalalarini o'rganish.

Dars jixozi: O'zbekistonning tabiiy geografik rayonlashtirish xaritasi, O'zbekistonning tabiiy xaritasi, O'zbekiston respublikasi atlasi. Qizilqum okrugini tabiiy geografik xaritasi.

1-topshiriq; Yozuvsiz kartada Zarafshon okrugini kartasini ishleng.

2-topshiriq; Zarafshon okrugini tabiiy geografik o'rnini, rel'efini, geologic tuzilishini, iqlimini, suvlarini, flora va faunasini, tabiatini muhofaza qilish masalalarini amaliyot daftariga yozing.

3-topshiriq; O'zbekistonning paleogeografik karta sxemalarini tahlil qiling. So'ngra **Maqsad:** Quyi Zarafshon okrugini tabiiy geografik o'rnini, rel'efini, geologik tuzilishini, iqlimini, suvlarini, flora va faunasini, tabiatini muhofaza qilish masalalarini o'rganish.

Dars jixozi: O'zbekistonning tabiiy geografik rayonlashtirish xaritasi, O'zbekistonning tabiiy xaritasi, O'zbekiston respublikasi atlasi. Quyi Zarafshon okrugini tabiiy geografik kartasi.

tabiiy-geografik okrug hududida qaysi davrda quruqlik bo'lgan, qaysi davrda uni suv bosgan va qaysi davrda yana quruqlikka aylanganligini aniqlang.

4-topshiriq; O'zbekiston geografik atlas (I-qismi)dagi tabiiy, geologik, tektonik va eng yangi tektonik xaritalarni bir-biriga solishtirib, tahlil qiling. So'ngra Quyi Zarafshon okrugi orografik unsurlarning tektonik strukturalariga mos kelish yoki kelmasligini, qadimiy plitaning necha metr chuqurlikda joylashganligini, uning ustini qaysi davr yotqiziqlari qoplab olganligini aniqlang.

5-topshiriq; O'zbekiston tabiiy iqlim xaritalarini va ilovadagi jadval ma'lumotlarini qunt bilan o'rganib chiqib, Quyi Zarafshon tabiiy-geografik okrugi iqlimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlang, iyul va yanvar izotermalari qanday joylashganligini tahlil qiling. Havo harorati janub- dan shimolga qanday o'zgaradi? Yanvar harorati Quyi Zarafshon tabiiy-geografik okrugida O'zbekistonning boshqa okruglariga nisbatan qanday sabablarga ko'ra past?

6-topshiriq; O'zbekiston tuproq va o'simlik xaritalarini taqqoslab, tahlil qilib, Quyi Zarafshon tabiiy-geografik okrugida qanday tuproq va o'simlik turlari mavjudligini, ularning qanday yo'llar bilan vujudga kelganligini aniqlang. Okrug tuproq-o'simlik turlarining o'ziga xos tomonlari nimalardan iborat, ular O'zbekistonning boshqa hududlaridagi tuproq-o'simlik qoplamidan qanday farq qiladi?

AMALIY MASHG'ULOT -18

Mavzu: Farg'ona okrugi

Farg'ona tabiiy geografik okrugi O'zbekistonning eng sharqida Tyanshan va Oloy tizimlari orasidagi Farg'ona vodiysida joylashgan. Bu okrugning atrofi tog'lar bilan o'ralgan.

Farg'ona tabiiy geografik okrugini janubdan Turkiston va Oloy, sharqdan Farg'ona va Oto'ynoq, shimoldan Chotqol, shimoli – g'arbdan esa Qurama va Qoramozor tog' tizimlari, g'arbdan Mug'ultog' o'rab turadi. Faqat g'arb tomondan

okrug torgina “Farg`ona” yoki “Xo`jand” darvozasi orqali Dalvarzin va Mirzacho`l tekisliklari bilan tutashib ketadi. Farg`ona tabiiy geografik okrugining uzunligi g`arbdan sharqqa 370 km, o`rtacha kengilig 80 – 100 km, eng keng joyi esa sharqiy qismida bo`lib, 150 km ga etadi.

Maqsad: Farg`ona okrugini tabiiy geografik o`rnini, rel`efini, geologik tuzilishini, iqlimini, suvlarini, flora va faunasini, tabiatini muhofaza qilish masalalarini o`rganish.

Dars jixozi: O`zbekistonning tabiiy geografik rayonlashtirish xaritasi ,O`zbekistonning tabiiy xaritasi,O`zbekiston respublikasi atlas. Farg`ona okrugini tabiiy geografik xaritasi.

tabiiy-geografik okrug hududida qaysi davrda quruqlik bo`lgan, qaysi davrda uni suv bosgan va qaysi davrda yana quruqlikka aylanganligini aniqlang.

1-topshiriq: Farg`ona okrugini kartasini ishleng. Farg`ona okrugini tabiiy geografik o`rnini, relyefini, geologik tuzilishini, iqlimini, suvlarini, flora va faunasini, tabiatini muhofaza qilish masalalarini amaliyot daftariga yozing

2-topshiriq: O'zbekiston tabiiy xaritasidan Farg'ona tabiiy-geografik okrugining o'rni va chegaralarini aniqlang.

a) Farg'ona tabiiy-geografik okrugi O'zbekistonning qaysi qismida joylashganligini aniqlang. Farg'ona tabiiy-geografik okrugida joylashgan viloyatlar tabiiy va iqtisodiy xaritalaridan okrugning eng g'arbiy va sharqiy, eng shimoliy va janubiy chekka nuqtalarini topib, xarita masshtabi va gradus turi yordamida uning uzunligi va kengligini hisoblab chiqing;

b) Farg'ona tabiiy-geografik okrugi chegarasi qaysi tog'lar, adirlar, tekisliklar, daryolar, kanallar va suv omborlari orqali o'tishligini tabiiy xaritadan, iqtisodiy xaritadan esa qaysi davlatlar va viloyatlar bilan chegaradoshligini aniqlang;

d) amaliy ishlar daftariga Farg'ona tabiiy-geografik okrugining konturini tushirib, chegaralarini aniqlab, paletka yordamida maydonining

kattaligini va u O'zbekiston hududining necha foizini tashkil etishligini hisoblab chiqing.

3-topshiriq:Farg'ona tabiiy-geografik okrugida uchrovchi tog'lar, adirlar, tekisliklar, qumliklar hamda okrugga yondosh bo'lgan tog' tizmalari, vodiylarni aniqlab, yozuvsiz xaritaga tushirib, nomlarini yozib qo'ying.

4-topshiriq:Farg'ona tabiiy-geografik okrugi yer usti tuzilishi haqida to'laroq ma'lumotga ega bo'lish uchun Qo'qon — O'zgan hamda Farg'ona — Namangan shaharlari orqali o'tuvchi chiziq bo'ylab gepsometrik profil chizing. Profilni tabiiy xarita bilan taqqoslab, okrug g'arbdan sharqqa, shimoldan janubga qanday o'zgarib borishini tahlil qiling.

5-topshiriq:O'zbekiston geografik atlasidagi geologik xaritalarni va ushbu qo'llanmadagi polegeografik xarita- chizmasini (1— 6-rasmlar) tahlil qilib, Farg'ona okrugi qaysi davrlarda dengiz ostida bo'lgan va qaysi davrda quruqlikka aylanganini aniqlang.

6-topshiriq:O'zbekiston tabiiy, geologik, tektonik va eng yangi tektonik xaritalarini tahlil qiling. Farg'ona tabiiy-geografik okrugidagi orografik unsurlarning tektonik strukturalarigato'g'ri kelish va kelmasligini aniqlang. Geologik xarita yordamida okrug hududidagi tub jinslar va ularning ustini qoplab olgan yotqiziqlarning yoshini bilib oling. Eng yangi tektonik xarita yordamida nima sababdan okrug hududida tez-tez zilzila bo'lib turishligini aniqlang.

7-topshiriq:Farg'ona tabiiy-geografik okrugi geologik tuzilishi haqida yaxshiroq tasawurga ega bo'lish uchun $71^{\circ} 30'$ sharqiy uzunlik orqali o'tuvchi chiziq bo'ylab geologik profilni tuzing.

8-topshiriq:O'zbekiston qazilma boyliklar xaritasini geologik xaritasi bilan taqqoslab, Farg'ona okrugida qanday qazilma boyliklar

borligini, ular qaysi davr yotqiziqlari orasida uchrashligini aniqlab, asosiy konlarni yozuvsiz xaritaga tushiring.

9-topshiriq: «Iqlim» mavzusidagi 8-topshiriqda ko'rsatilgan yo'l bilan Qo'qon, Andijon va Namangan shaharlarida 22- iyun va 22- dekabr hamda 21-mart va 23- sentabrda Quyosh- ning ufqdan balandligini aniqlang.

10-topshiriq: Radiatsiya balansi xaritasidan foydalanib, Farg'ona, Andijon va Namangan shaharlarida har bir m^3 va gektar yuzaga tushadigan yillik yalpi Quyosh radiatsiya miqdorini hisoblab chiqing.

11-topshiriq: Ma'lumotlaridan foydalanib, Farg'ona shahrida Quyosh nur sohib turish davrining (soat hisobida) diagrammasini tuzing. Unda diagrammaning gorizontal o'qiga oylar, vertikal o'qiga nur sohib turish davri (soat hisobida) qo'yiladi.

12-topshiriq: O'zbekiston geografik atlasidagi shamollar xaritasini tahlil qilib, Farg'ona tabiiy-geografik okrugiga qishda va yozda esuvchi shamollar (havo oqimi) yo'nalishini aniqlang. Okrug hududida iqlim unsurlarining taqsimlanishiga o'sha havo oqimlarining ta'sirini bilib oling.

13-topshiriq: Nima uchun okrug hududida qishda bosim qo'shni Mirzacho'l okrugiga nisbatan yuqori, yozda, aksincha, past bo'ladi? Bekobod shamoli qishda okrugdan Mirzacho'l tomonga, aksincha, Qo'qon shamoli bahor va kuz faslida Mirzacho'ldan Farg'ona vodiysi tomonga esadi, sababini tushuntirib bering.

14-topshiriq: O'zbekiston geografik atlasidagi (1-qism) haroratni ko'rsatuvchi xaritalarni tahlil qiling. Farg'ona tabiiy-geografik okrugida iyul va yanvar izotermalarining joylashishini tushuntiring. Havo haroratining bu tariqa taqsimlanishiga ta'sir etuvchi omillarni bilib oling.

15-topshiriq:Farg'ona tabiiy-geografik okrugining shimoliy qismida sovuqsiz kunlar va effektiv harorat (Namangan shahrida sovuq bo'lmaydigan kun 229, kuzda birinchi sovuq tushguncha effektiv haroratlar yig'indisi 2386) janubiga (Farg'ona shahrida sovuqsiz kunlar 213, effektiv haroratlar yig'indisi 2223) nisbatan ortiq. Sababini tushuntirib bering.

16-topshiriq:Farg'ona, Andijon va Namangan shaharlarida haroratning oylar bo'yicha taqsimlanish diagrammasini tuzing. Diagrammaning gorizontal o'qiga oylar, vertikal o'qiga harorat (gradus hisobida) qo'yiladi. O'sha shaharlarda haroratning oylar bo'yicha taqsimlanishidagi tafovutni tahlil qiling (ilovadagi 1-jadvaldan foydalaning).

17-topshiriq:O'zbekiston iqlim xaritasini tahlil qilib, Farg'ona tabiiy-geografik okrugida yillik yog'in miqdorining hudud bo'yicha taqsimlanishini aniqlang. Nima uchun va qaysi omillar ta'sirida g'arbiy qismiga yog'in eng kam tushishligini bilib oling. Okrugda yog'inlarning oylar va yil fasllari bo'yicha taqsimlanishi haqida to'laroq tasavvurga ega bo'lish uchun quyidagi ikkita diagrammani ishlang:

1. Yog'inlarning oylar bo'yicha taqsimlanishini aks ettiruvchi diagramma. Unda diagrammaning gorizontal o'qiga oylar, vertikal o'qiga yog'in miqdori (mm hisobida) qo'yiladi.

2. Yog'inlarning yil fasllari bo'yicha taqsimlanishini bildiruvchi aylanma diagramma. Bunda yillik yog'in miqdori aylanmada 100% deb olinadi, fasllardagi yog'in miqdori aylanma ichida ajratib (% hisobida) ko'rsatiladi. So'ngra diagrammalar tahlil qilinib, yog'inlarning notekis taqsimlanish sabablari aniqlanadi.

18-topshiriq:O'zbekiston geografik atlasidagi iqlimga doir xaritalarni tahlil qilib, Farg'ona tabiiy-geografik okrugida yog'in va

mumkin bo'lgan bug'lanish miqdorini taqqoslab, okrug hududining qaysi qismida namlik yetarli va qaysi qismida yetishmasligini aniqlang.

19-topshiriq: Farg'ona tabiiy-geografik okrugida dastlabki, kuzgi va bahorgi eng so'nggi sovuqlar vaqtini hamda sovuqsiz kunlar miqdorini Qo'qon, Farg'ona, Andijon va Namangan shaharlari misolida aniqlang. So'ngra nima uchun okrugning g'arbiy qismida (Qo'qonda) sovuq bo'lmaydigan kunlar sharqiga (Namanganga) nisbatan ozligini tushuntirib bering.

20-topshiriq: Nima uchun Oloy — Turkiston tog'laridan boshlanuvchi daryolar (Sux, Isfara,) Chotqol tog'idan boshlanuvchi (Kosonsoy, G'ovasoy...) daryolarga nisbatan sersuv va eng ko'p suvini yozda (7—9-oylarida) oqizadi. Aksincha, Chotqol tog'laridan boshlanuvchi daryolarning eng ko'p suvi bahorda (3—6-oylarda) oqadi, sababini tushuntirib bering.

21-topshiriq: Chotqol, Farg'ona, Oloy — Turkiston tog'laridan boshlanuvchi daryolarning uzunligini, o'rtacha suv sarfini, o'rtacha oqim modulini aks ettiruvchi diagramma tuzing. Diagrammaning gorizonttal o'qiga daryolar, vertikal o'qining o'ng tomoniga (qora rangda) uzunligi (km da), chap tomoniga (ko'k rangda) o'rtacha yillik suv sarfi (m^3/sec), o'ng tomon yoniga (yashil rangda) o'rtacha oqim moduli ($1/sec, km^2$) tushiriladi. Diagrammaning gorizonttal o'qiga daryolarning uzunligi (qora rang), o'rtacha yillik suv sarfi (ko'k rang) va o'rtacha oqim moduli (yashil rang) ustunchalar tarzida ko'rsatiladi.

22-topshiriq: O'zbekiston tabiiy, iqlimiy va qishloq xo'jalik xaritalarini taqqoslab, tahlil qilib, o'quv qo'llanma va adabiyotlardan foydalanib, Farg'ona tabiiy-geografik okrugi atrofidagi tog'lardan boshlanuvchi daryo va soylar suvi nima uchun Sirdaryoga yetib bormasligini bilib oling.

23-topshiriq:Farg'ona tabiiy-geografik okrugidagi (tabiiy xaritadan foydalanib) eng muhim kanallar va suv omborlarining qaysi daryodan suv olishligini, qurilgan yilini, kanallarning uzunligini, suv omborlarining maydoni, suv sig'imi, qancha gektar yerlarni suv bilan ta'minlashligi to'g'risida ma'lumotlarni to'plab, amaliy ish daftariga qayd eting.

24-topshiriq:O'zbekiston geografik atlasidagi (1-qism) tuproqqa doir xaritalarni tahlil qiling. Okrug hududida qanday tuproq turlari mavjudligini aniqlang, nima uchun markaziy Farg'onadagi tuproq turlari sho'rlanganligini, uning oldini olish uchun qanday chora-tadbirlar ko'rish kerakligini, nima uchun okrugning yuqori adirlarga yaqin qismida tuproq sho'rlanmaganligini aniqlang.

25-topshiriq:O'zbekiston o'simliklar xaritasini tahlil qilib, Farg'ona tabiiy-geografik okrugida qanday tabiiy (balandlik) mintaqalar mavjudligini, ularda qanday o'simliklar uchrashligini aniqlang. Okrug markaziy qismidagi qumli cho'llarda va Sirdaryo to'qayzorlarida qanday o'simlik turlari uchraydi? Okrugda uchrovchi eng muhim, noyob, «Qizil kitob»ga kirgan, muhofaza ostiga olingan o'simlik turlari ro'yxatini tuzib, amaliy ish daftariga qayd qiling.

26-topshiriq:Farg'ona tabiiy-geografik okrugi tabiiy sharoitining g'arbdan sharqqa hamda shimoldan janubga qarab o'zgarib borishi haqida yaxshi tasawurga ega bo'lish uchun Qo'qon—O'zgan va Farg'ona — Namangan yo'nalishi bo'yicha kompleks tabiiy-geografik profilini tuzing. Okrug tabiiy komponentlari o'zgarishi uning unsurlarini bir-biriga bog'liq ekanligining profilini tabiiy va iqlim xaritalariga taqqoslab, tahlil qilib, izohlab bering.

27-topshiriq:Amaliy ish oxirida «Farg'ona tabiiy-geografik okrugining tabiiy boyliklari va ularni muhofaza qilish» mav- zusida ma'ruza matnini tayyorlang. Unda okrug tabiati va boyliklarining hozirgi

holati, unga ta'sir etuvchi tabiiy va antropogen omillar, tabiatni optimal saqlab, boyitib borishga qaratilgan chora-tadbirlarga alohida e'tibor bering.

AMALIY MASHG'ULOT -19

Mavzu: O'rta Zarafshon

Zarafshon okrugining mutloq balandligi Samarqand shahri 727 m, Kattaqo'rg'on shahri 450 m, Navoiy shahri 347 m. Okrug paleogen, neogen, antropogen davr cho'kindi jinslaridan tarkib topgan. U Xazar yo'lagida torayib, so'ng Abusalim tepaligida kengayib, Shoptoli qishlog'ida janubi – g'arbga qarab kengayib Buxoro del'tasini hosil qiladi. Deltaning uzunligi 102 km. o'rtacha kengligi 50 – 55 km, eng keng eri 70 km.

Maqsad: O'rta Zarafshon okrugini tabiiy geografik o'rnini, rel'efini, geologik tuzilishini, iqlimini, suvlarini, flora va faunasini, tabiatini muhofaza qilish masalalarini o'rganish.

Dars jixozi: O'zbekistonning tabiiy geografik rayonlashtirish xaritasi, O'zbekistonning tabiiy xaritasi, O'zbekiston respublikasi atlas. O'rta Zarafshon okrugini tabiiy geografik xaritasi

1-topshiriq; Yozuvsiz kartada O'rta Zarafshon okrugini kartasini ishleng.

2-topshiriq; O'rta Zarafshon okrugini tabiiy geografik o'rnini, rel'efini, geologik tuzilishini, iqlimini, suvlarini, flora va faunasini, tabiatini muhofaza qilish masalalarini amaliyot daftariga yozing.

3-topshiriq: O'rta Zarafshon tabiiy-geografik okrugida uchrovchi tog'lar, adirlar, tekisliklar, qumliklar hamda okrugga yondosh bo'lgan tog' tizmalari, vodiylarni aniqlab, yozuvsiz xaritaga tushirib, nomlarini yozib qo'ying.

4-topshiriq: O'rta Zarafshon tabiiy-geografik okrugi yer usti tuzilishi haqida to'laroq ma'lumotga ega bo'lish uchun Qo'shrabot-Urgut shaharlari orqali o'tuvchi chiziq bo'ylab gepsometrik profil chizing.

Profilni tabiiy xarita bilan taqqoslab, okrug g'arbdan sharqqa, shimoldan janubga qanday o'zgarib borishini tahlil qiling.

5-topshiriq: O'zbekiston geografik atlasidagi geologik xaritalarni va qo'llanmalardagi polegeografik xarita- chizmasini tahlil qilib, O'rta Zarafshon okrugi qaysi davrlarda dengiz ostida bo'lgan va qaysi davrda quruqlikka aylanganini aniqlang.

6-topshiriq: O'zbekiston tabiiy, geologik, tektonik va eng yangi tektonik xaritalarini tahlil qiling. O'rta Zarafshon tabiiy-geografik okrugidagi orografik unsurlarning tektonik strukturalariga to'g'ri kelish va kelmasligini aniqlang. Geologik xarita yordamida okrug hududidagi tub jinslar va ularning ustini qoplab olgan yotqiziqlarning yoshini bilib oling. Eng yangi tektonik xarita yordamida nima sababdan okrug hududida tez-tez zilzila bo'lib turishligini aniqlang.

7-topshiriq: Samarqand, va Kattaqo'rg'on shaharlarida haroratning oylar bo'yicha taqsimlanish diagrammasini tuzing. Diagrammaning gorizontal o'qiga oylar, vertikal o'qiga harorat (gradus hisobida) qo'yiladi. O'sha shaharlarda haroratning oylar bo'yicha taqsimlanishidagi tafovutni tahlil qiling.

8-topshiriq: O'zbekiston iqlim xaritasini tahlil qilib, O'rta Zarafshon tabiiy-geografik okrugida yillik yog'in miqdorining hudud bo'yicha taqsimlanishini aniqlang. Nima uchun va qaysi omillar ta'sirida g'arbiy qismiga yog'in eng kam tushishligini bilib oling. Okrugda yog'inlarning oylar va yil fasllari bo'yicha taqsimlanishi haqida to'laroq tasavvurga ega bo'lish uchun quyidagi ikkita diagrammani ishlang:

-Yog'inlarning oylar bo'yicha taqsimlanishini aks ettiruvchi diagramma. Unda diagrammaning gorizontal o'qiga oylar, vertikal o'qiga yog'in miqdori (mm hisobida) qo'yiladi.

-Yog'inlarning yil fasllari bo'yicha taqsimlanishini bildiruvchi aylanma diagramma. Bunda yillik yog'in miqdori aylanmada 100% deb olinadi,

fasllardagi yog'in miqdori aylanma ichida ajratib (% hisobida) ko'rsatiladi. So'ngra diagrammalar tahlil qilinib, yog'inlarning notekis taqsimlanish sabablari aniqlanadi.

9-topshiriq: O'zbekiston geografik atlasidagi iqlimga doir xaritalarni tahlil qilib, O'rta Zarafshon tabiiy-geografik okrugida yog'in va mumkin bo'lgan bug'lanish miqdorini taqqoslab, okrug hududining qaysi qismida namlik yetarli va qaysi qismida yetishmasligini aniqlang.

10-topshiriq: O'rta Zarafshon tabiiy-geografik okrugidagi (tabiiy xaritadan foydalanib) eng muhim kanallar va suv omborlarining qaysi daryodan suv olishligini, qurilgan yilini, kanallarning uzunligini, suv omborlarining maydoni, suv sig'imi, qancha gektar yerlarni suv bilan ta'minlashligi to'g'risida ma'lumotlarni to'plab, amaliy ish daftariga qayd eting.

11-topshiriq: O'zbekiston geografik atlasidagi tuproqqa doir xaritalarni tahlil qiling. Okrug hududida qanday tuproq turlari mavjudligini aniqlang, nima uchun g'arbiy qismida O'rta Zarafshondagi tuproq turlari sho'rlanganligini, uning oldini olish uchun qanday chora-tadbirlar ko'rish kerakligini, nima uchun okrugning yuqori adirlarga yaqin qismida tuproq sho'rlanmaganligini aniqlang.

12-topshiriq: O'zbekiston o'simliklar xaritasini tahlil qilib, O'rta Zarafshon tabiiy-geografik okrugida qanday tabiiy (balandlik) mintaqalar mavjudligini, ularda qanday o'simliklar uchrashligini aniqlang. Okrug markaziy qismidagi Zarafshon to'qayzorlarida qanday o'simlik turlari uchraydi? Okrugda uchrovchi eng muhim, noyob, «Qizil kitob»ga kirgan, muhofaza ostiga olingan o'simlik turlari ro'yxatini tuzib, amaliy ish daftariga qayd qiling.

AMALIY MASHG'ULOT -20

Mavzu: Qashqadariyo okrugi.

Okrug O'zbekistonning janubiy qismidagi Qarshi botig'ini o'z ichiga oladi. U shimolda Qoratepa, Zirabuloq, Ziyovuddin tog'lari bilan, sharqda Hisor tizmasining janubi- g'arbiy qismining quyi etaklari bilan o'ralgan. Okrugning janubida O'zbekistonning Turkmaniston bilan bo'lgan davlat chegarasi o'tadi. G'arbda Zarafshon okrugi bilan chegaradosh. Jarqoq va Dengizko'l platolari bu ikkala okrugni bir – biridan ajratib turadi. Okrug qalin alyuvial, prolyuvial jinslardan iborat. Ular o'rta va antropogen davrga xos.

Qarshi shahrining shimolida Qung'irtog' (517 m), Koson shahrining janubida Kosontog', Maymoqtog' (500 m), Sandikli qumligining sharqida Olovuddin tog', okrugning g'arbida Jarqoq platosi, Qarshi, Nishon, Karnob, Malik cho'llari va Sandikli qumligi kabi qator cho'llari mavjud.

Maqsad: Qashqadariyo okrugini tabiiy geografik o'rnini, rel'efini, geologik tuzilishini, iqlimini, suvlarini, flora va faunasini, tabiatini muhofaza qilish masalalarini o'rganish.

Dars jixoz: O'zbekistonning tabiiy geografik rayonlashtirish xaritasi, O'zbekistonning tabiiy xaritasi, O'zbekiston respublikasi atlas. Qashqadariyo okrugini tabiiy geografik xaritasi

1-topshiriq; Yozuvsiz kartada Qashqadariyo okrugini kartasini ishleng.

2-topshiriq; Qashqadariyo okrugini tabiiy geografik o'rnini, relyefini, geologic tuzilishini, iqlimini, suvlarini, flora va faunasini, tabiatini muhofaza qilish masalalarini amaliyot daftariga yozing.

3-topshiriq: Qashqadariyo tabiiy-geografik okrugida uchrovchi tog'lar, adirlar, tekisliklar, qumliklar hamda okrugga yondosh bo'lgan tog' tizmalari, vodiylarni aniqlab, yozuvsiz xaritaga tushirib, nomlarini yozib qo'ying.

4-topshiriq: Qashqadariyo tabiiy-geografik okrugi yer usti tuzilishi haqida to'laroq ma'lumotga ega bo'lish uchun Kitob-Muborak shaharlari orqali o'tuvchi chiziq bo'ylab gepsometrik profil chizing. Profilni tabiiy xarita bilan taqqoslab, okrug g'arbdan sharqqa, shimoldan janubga qanday o'zgarib borishini tahlil qiling.

5-topshiriq: O'zbekiston geografik atlasidagi geologik xaritalarni va qo'llanmalardagi polegeografik xarita- chizmasini tahlil qilib, Qashqadariyo okrugi qaysi davrlarda dengiz ostida bo'lgan va qaysi davrda quruqlikka aylanganini aniqlang.

6-topshiriq: O'zbekiston tabiiy, geologik, tektonik va eng yangi tektonik xaritalarini tahlil qiling. Qashqadariyo tabiiy-geografik okrugidagi orografik unsurlarning tektonik strukturalariga to'g'ri kelish va kelmasligini aniqlang. Geologik xarita yordamida okrug hududidagi tub jinslar va ularning ustini qoplab olgan yotqiziqlarning yoshini bilib oling. Eng yangi tektonik xarita yordamida nima sababdan okrug hududida tez-tez zilzila bo'lib turishligini aniqlang.

7-topshiriq: Qashqadariyo tabiiy-geografik okrugidagi (tabiiy xaritadan foydalanib) eng muhim kanallar va suv omborlarining qaysi daryodan suv olishligini, qurilgan yilini, kanallarning uzunligini, suv omborlarining maydoni, suv sig'imi, qancha gektar yerlarni suv bilan ta'minlashligi to'g'risida ma'lumotlarni to'plab, amaliy ish daftariga qayd eting.

8-topshiriq: O'zbekiston geografik atlasidagi tuproqqa doir xaritalarni tahlil qiling. Okrug hududida qanday tuproq turlari mavjudligini aniqlang, nima uchun g'arbiy qismida Qashqadariyo tuproq turlari sho'rlanganligini, uning oldini olish uchun qanday chora-tadbirlar ko'rish kerakligini, nima uchun okrugning yuqori adirlarga yaqin qismida tuproq sho'rlanmaganligini aniqlang.

9-topshiriq: O'zbekiston o'simliklar xaritasini tahlil qilib, Qashqadariyo tabiiy-geografik okrugida qanday tabiiy (balandlik) mintaqalar mavjudligini, ularda qanday o'simliklar uchrashligini aniqlang. Okrug markaziy qismidagi Qashqadariyo to'qayzorlarida qanday o'simlik turlari uchraydi? Okrugda uchrovchi eng muhim, noyob, «Qizil kitob»ga kirgan, muhofaza ostiga olingan o'simlik turlari ro'yxatini tuzib, amaliy ish daftariga qayd qiling.

AMALIY MASHG'ULOT -21

Mavzu: Surxondaryo okrugi.

O'zbekistonnig eng janubiy qismidagi Sherobod – Surxon vodiysining tekislik qismini egallaydi. G'abrda Kelif – Sherobod – Sariqamish past tog'lari va Surxon tog'lari, shimoli – sharqida Hisor tizmasining janubiy yonbag'ri, sharqda esa Bobotog'ning g'arbiy yonbag'rining quyi qismi bilan o'ralgan. Uning janubiy chegaralari esa Amudaryo orqali o'tadi.

Okrug sinklinal botiqda joylashgan. Neogen va antropogen davrning qalin alyuvial va prolyuvial yotqiziqlari bilan to'lgan. Okrugda tog'lar ko'tarilib, botiqlar cho'kib bormoqda. Surxondaryoning shimoli – sharqidan, janubi g'arbida 170 km cho'zilgan. U yerda balandligi 270 – 550 m keladigan qiya tekisliklar ko'p.

Maqsad: Surxondaryo okrugini tabiiy geografik o'rmini, rel'efini, geologik tuzilishini, iqlimini, suvlarini, flora va faunasini, tabiatini muhofaza qilish masalalarini o'rganish.

Dars jixozi: O'zbekistonning tabiiy geografik rayonlashtirish xaritasi, O'zbekistonning tabiiy xaritasi, O'zbekiston respublikasi atlas. Surxondaryo okrugini tabiiy geografik xaritasi

1-topshiriq; Yozuvsiz kartada Surxondaryo okrugini kartasini ishleng.

2-topshiriq: Surxondaryo okrugini tabiiy geografik o`rnini, rel`efini, geologik tuzilishini, iqlimini, suvlarini, flora va faunasini, tabiatini muhofaza qilish masalalarini amaliyot daftariga yozing.

3-topshiriq: Surxondaryo tabiiy-geografik okrugida uchrovchi tog'lar, adirlar, tekisliklar, qumliklar hamda okrugga yondosh bo'lgan tog' tizmalari, vodiylarni aniqlab, yozuvsiz xaritaga tushirib, nomlarini yozib qo'ying.

4-topshiriq: Surxondaryo tabiiy-geografik okrugi yer usti tuzilishi haqida to'laroq ma'lumotga ega bo'lish uchun Denov-Boysun shaharlari orqali o'tuvchi chiziq bo'ylab gepsometrik profil chizing. Profilni tabiiy xarita bilan taqqoslab, okrug g'arbdan sharqqa, shimoldan janubga qanday o'zgarib borishini tahlil qiling.

5-topshiriq: O'zbekiston geografik atlasidagi geologik xaritalarni va qo'llanmalardagi polegeografik xarita- chizmasini tahlil qilib, Surxondaryo okrugi qaysi davrlarda dengiz ostida bo'lgan va qaysi davrda quruqlikka aylanganini aniqlang.

6-topshiriq: O'zbekiston tabiiy, geologik, tektonik va eng yangi tektonik xaritalarini tahlil qiling. Surxondaryo tabiiy-geografik okrugidagi orografik unsurlarning tektonik strukturalariga to'g'ri kelish va kelmasligini aniqlang. Geologik xarita yordamida okrug hududidagi tub jinslar va ularning ustini qoplab olgan yotqiziqlarning yoshini bilib oling. Eng yangi tektonik xarita yordamida nima sababdan okrug hududida tez-tez zilzila bo'lib turishligini aniqlang.

7-topshiriq: Surxondaryo tabiiy-geografik okrugidagi (tabiiy xaritadan foydalanib) eng muhim kanallar va suv omborlarining qaysi daryodan suv olishligini, qurilgan yilini, kanallarning uzunligini, suv omborlarining maydoni, suv sig'imi, qancha gektar yerlarni suv bilan ta'minlashligi to'g'risida ma'lumotlarni to'plab, amaliy ish daftariga qayd eting.

8-topshiriq: O'zbekiston geografik atlasidagi tuproqqa doir xaritalarni tahlil qiling. Okrug hududida qanday tuproq turlari mavjudligini aniqlang, nima uchun g'arbiy qismida Qashqadariyo tuproq turlari sho'rlanganligini, uning oldini olish uchun qanday chora-tadbirlar ko'rish kerakligini, nima uchun okrugning yuqori adirlarga yaqin qismida tuproq sho'rlanmaganligini aniqlang.

9-topshiriq: O'zbekiston o'simliklar xaritasini tahlil qilib, Surxondaryo tabiiy-geografik okrugida qanday tabiiy (balandlik) mintaqalar mavjudligini, ularda qanday o'simliklar uchrashligini aniqlang. Okrug markaziy qismidagi Qashqadariyo to'qayzorlarida qanday o'simlik turlari uchraydi? Okrugda uchrovchi eng muhim, noyob, «Qizil kitob»ga kirgan, muhofaza ostiga olingan o'simlik turlari ro'yxatini tuzib, amaliy ish daftariga qayd qiling.

AMALIY MASHG'ULOT -22

Mavzu: Toshkent-Mirzacho'l okrugi

Okrug geologik jihatdan G'arbiy Tyanshan va Turkiston megaantiklinali orasidagi sinklinalda joylashib, so'ngra Sirdaryo va uning doimiy hamda vaqtli irmoqlari keltirgan jinslar bilan to'ldirilgan.

Bu yerda Sho'ro'zak, Sardoba, Qorao'y, Yog'ochota va boshqa botiqlar Sirdaryoning o'sha qadimiy o'zanlaridir. Okrugning o'rtacha nisbiy balandligi 373 m – 385 m, Guliston shahri 276 m, Sirdaryo shahri 240 m, Chinoz 278 m, Yangiyo'l shahri 338 m, Bo'zsuvda Chirchiq vodiysining balandligi 473 m ni tashkil etadi.

Okrugning iqlimi kontinental, Arktika havo massalari bema'lol kirib keladi. Qishning o'rtacha havo harorati -1, -3⁰ S, iyulning o'rtacha havo harorati 27 – 29⁰ S. eng past harorat -28, -35⁰ S. Yog'inlar notekis taqsimlangan, o'rtacha yillik yog'in miqdori 250 – 300 mm, okrugning shimoli – sharqida 300 – 400 mm ga etadi.

Maqsad: Toshkent-Mirzacho'l okrugini tabiiy geografik o`rnini, rel`efini, geologik tuzilishini, iqlimini, suvlarini, flora va faunasini, tabiatini muhofaza qilish masalalarini o`rganish.

Dars jixozi: O'zbekistonning tabiiy geografik rayonlashtirish xaritasi, O'zbekistonning tabiiy xaritasi, O'zbekiston respublikasi atlas. Toshkent-Mirzacho'l okrugini tabiiy geografik xaritasi

1-topshiriq; Yozuvsiz kartada Toshkent-Mirzacho'l okrugini kartasini ishleng.

2-topshiriq; Toshkent-Mirzacho'l okrugini tabiiy geografik o`rnini, relyefini, geologik tuzilishini, iqlimini, suvlarini, flora va faunasini, tabiatini muhofaza qilish masalalarini amaliyot daftariga yozing.

3-topshiriq: Toshkent-Mirzacho'l tabiiy-geografik okrugida uchrovchi tog'lar, adirlar, tekisliklar, qumliklar hamda okrugga yondosh bo'lgan tog' tizmalari, vodiylarni aniqlab, yozuvsiz xaritaga tushirib, nomlarini yozib qo'ying.

4-topshiriq: Toshkent-Mirzacho'l tabiiy-geografik okrugi yer usti tuzilishi haqida to'laroq ma'lumotga ega bo'lish uchun Chorvoq-Guliston shaharlari orqali o'tuvchi chiziq bo'ylab gepsometrik profil chizing. Profilni tabiiy xarita bilan taqqoslab, okrug g'arbdan sharqqa, shimoldan janubga qanday o'zgarib borishini tahlil qiling.

5-topshiriq: O'zbekiston geografik atlasidagi geologik xaritalarni va qo'llanmalardagi polegeografik xarita- chizmasini tahlil qilib, Toshkent-Mirzacho'l okrugi qaysi davrlarda dengiz ostida bo'lgan va qaysi davrda quruqlikka aylanganini aniqlang.

6-topshiriq: O'zbekiston tabiiy, geologik, tektonik va eng yangi tektonik xaritalarini tahlil qiling. Toshkent-Mirzacho'l tabiiy-geografik okrugidagi orografik unsurlarning tektonik strukturalarigato'g'ri kelish va kelmasligini aniqlang. Geologik xarita yordamida okrug hududidagi tub jinslar va ularning ustini qoplab olgan yotqiziqlarning yoshini bilib

oling. Eng yangi tektonik xarita yordamida nima sababdan okrug hududida tez-tez zilzila bo'lib turishligini aniqlang.

7-topshiriq: Surxondaryo tabiiy-geografik okrugidagi (tabiiy xaritadan foydalanib) eng muhim kanallar va suv omborlarining qaysi daryodan suv olishligini, qurilgan yilini, kanallarning uzunligini, suv omborlarining maydoni, suv sig'imi, qancha gektar yerlarni suv bilan ta'minlashligi to'g'risida ma'lumotlarni to'plab, amaliy ish daftariga qayd eting.

8-topshiriq: O'zbekiston geografik atlasidagi tuproqqa doir xaritalarni tahlil qiling. Okrug hududida qanday tuproq turlari mavjudligini aniqlang, nima uchun g'arbiy qismida Toshkent-Mirzacho'l tuproq turlari sho'rlanganligini, uning oldini olish uchun qanday chora-tadbirlar ko'rish kerakligini, nima uchun okrugning yuqori adirlarga yaqin qismida tuproq sho'rlanmaganligini aniqlang.

9-topshiriq: O'zbekiston o'simliklar xaritasini tahlil qilib, Surxondaryo tabiiy-geografik okrugida qanday tabiiy (balandlik) mintaqalar mavjudligini, ularda qanday o'simliklar uchrashligini aniqlang. Okrug markaziy qismidagi Sirdaryo to'qayzorlarida qanday o'simlik turlari uchraydi? Okrugda uchrovchi eng muhim, noyob, «Qizil kitob»ga kirgan, muhofaza ostiga olingan o'simlik turlari ro'yxatini tuzib, amaliy ish daftariga qayd qiling.

10-topshiriq: G'arbiy Tyanshan okrugini tabiiy geografik o'rnini, rel'efini, geologik tuzilishini, iqlimini, suvlarini, flora va faunasi haqidagi bilimlarni mustahkamlash uchun quyidagi savollarga javob bering

- O'zbekiston atlasidan foydalanib okrug geografik o'rnini bilib oling, chegaralarini aniqlang.

- Okrug geologik tuzilishi jihatidan Farg'ona okrugidan qanday farq qiladi?

- Okrug yer usti tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

-Qanday omillar ta'sirida okrugda qish nisbatan sovuq, yoz issiq va kuruq bo'ladi?

- Nima uchun okrugda eng ko'p yog'in bahor fasliga to'g'ri kelib, yozda deyarli yog'maydi?

- Chirchik. daryo suvining loyqaligi apreliyun oylari ortib, qishda tinik bo'ladi, sababini tushuntirib bering.

- Xaritadan okrugdagi eng katta ko'llarni topib, ular qanday yo'llar bilan vujudga kelganligini, nima uchun suvi sho'r ekanligini tushuntirib bering.

- Nima uchun okrug hududidagi Mirzacho'l va Jizzax cho'l qismida tuproqlar nisbatan sho'rlashgan, o'simliklar siyrak o'sib, ko'proq. galofitlar turiga mansub?

AMALIY MASHG'ULOT -23

Mavzu: G'arbiy Tyanshan okrugi.

Bu okrugga G'arbiy Tyanshan tog' tizmasining O'zbekiston hududidagi qismi kiradi. Okrug mustaqil tabiiy-geografik o'lka sifatida g'arbda Toshkent-Mirzacho'l okrugi bilan o'ralgan, shimolda, sharqda va janubda uning chegarasi shartli ravishda O'zbekistonning Qozog'iston, Qirg'iziston hamda Tojikiston bilan bo'lgan davlat chegarasiga to'g'ri keladi. Bu chegara shimoli-g'arbda Qorjantog', shimolda Talas olz tog'i, sharkda Piskom tog'larining o'q qismlari, janubda esa Qurama, Mo'ru tog'larining suv ayirg'ich qismlari orqali o'tadi. G'arbiy Tyanshan okrugi o'zining geologik rivojlanish tarixi, yer yuzasining tuzilishi va geografik muhitning boshqa xususiyatlari jihatidan Tyanshan tog' tizimining qolgan qismlaridan farq qiladi.

Maqsad: G'arbiy Tyanshan okrugini tabiiy geografik o'rnini, rel'efini, geologik tuzilishini, iqlimini, suvlarini, flora va faunasini, tabiatini muhofaza qilish masalalarini o'rganish.

Dars jixozi: O'zbekistonning tabiiy geografik rayonlashtirish xaritasi, O'zbekistonning tabiiy xaritasi, O'zbekiston respublikasi atlas. G'arbiy Tyanshan okrugini tabiiy geografik xaritasi

1-topshiriq; Yozuvsiz kartada G'arbiy Tyanshan okrugini kartasini ishleng.

2-topshiriq; Gʻarbiy Tyanshan okrugini tabiiy geografik oʻrnini, relʼefini, geologic tuzilishini, iqlimini, suvlarini, flora va faunasini, tabiatini muhofaza qilish masalalarini amaliyot daftariga yozing.

3-topshiriq; O'zbekiston geologik, tektonik va eng yangi tektonik xaritalarini tahlil qilib, Gʻarbiy Tyanshan tabiiy-geografik okrugi hududi qaysi davrda suv ostida boʻlgan va qaysi tektonik jarayonda quruqlikka aylanib, togʻlar burmalangan (koʻtarilgan)ligini aniqlang. Okrugda uchrovchi togʻ jinslari, ularning turlari hamda qaysi davrga xos ekanligini bilib oling. Okrug hududida uchrovchi qazilma boyliklar qaysi davr jinslari orasida uchrashligini aniqlang.

4-topshiriq; Gʻarbiy Tyanshan okrugini tabiiy geografik oʻrnini, relʼefini, geologik tuzilishini, iqlimini, suvlarini, flora va faunasi haqidagi bilimlarni mustahkamlash uchun quyidagi savollarga javob bering

- Janubi–gʻarbiy yonbagʻriga yogʻin kup tushadiyu, sharqiy yonbagʻriga kam tushadi?

- Nima sababdan Chirchiq daryosining Chotqol va Piskom irmoqlari sersuv?

- Okrugda landshaftning qanday balandlik mintaqalanishi mavjud va ularning bir-birlaridan ajralib turadigan tafovutlari nimalardan iborat?

- Okrugdagi eng muhim tabiiy boyliklarga nimalar kiradi va nima uchun xalq bogʻi tashkil etildi?

- Yuqori Chirchiq tabiiy-geografik rayonining Yuqori Ohangaron rayonidan farq qiluvchi tabiiy sharoitlarini gapirib bering.

AMALIY MASHGʻULOT -24

Mavzu: Turkiston-Nurota okrugi

Turkiston – Nurota okrugi Turkiston tizmasining gʻarbiy qismini va Nurota tizmasini oʻz ichiga oladi. Turkiston tizmasi Mastchoh togʻ tuguni yaqinida Oloy tizmasidan ajralib chiqadi va kenglik boʻylab 350 km ga choʻziladi. Uning eni oʻrta

hisobda 60 km, balandligi esa 3600 – 4000 m. Chumqortogʻ, Gʻubduntogʻ, Qaroqchitogʻ, Molguzar, Shovqortogʻ kabi tizmaning davomlari mavjud.

Nurota tizmasi Turkiston tizmasining shimoli – gʻarbga choʻzilgan davomidir. Tizmaning uzunligi Temurlang darvozasidan Nurota qishlogʻigacha 200 km, eng keng eri markaziy qismida boʻlib, undan gʻarbga va sharqqa borgan sari torayadi. Oʻrtacha balandligi 1500 m, eng baland yeri markaziy qismidagi Hayotboshi yoki Zargar choʻqqisi 2165 m ga etadi. Nurota tizmasining sharqiy qismi Quytosh togʻi deb ataladi.

Maqsad: Turkiston – Nurota okrugini tabiiy geografik oʻrnini, relʼefini, geologik tuzilishini, iqlimini, suvlarini, flora va faunasini, tabiatini muhofaza qilish masalalarini oʻrganish.


Dars jixozi: Oʻzbekistonning tabiiy geografik rayonlashtirish xaritasi ,Oʻzbekistonning tabiiy xaritasi,Oʻzbekiston respublikasi atlas. Turkiston – Nurota okrugini tabiiy geografik xaritasi

1-topshiriq; Yozuvsiz kartada Turkiston – Nurota okrugini kartasini ishleng.

2-topshiriq; Mirzachoʻl okrugini tabiiy geografik oʻrnini, relʼefini, geologic tuzilishini, iqlimini, suvlarini, flora va faunasini, tabiatini muhofaza qilish masalalarini amaliyot daftariga yozing.

AMALIY MASHG'ULOT-25

Mavzu: Hisor-Zarafshon okrugi



6- rasm.Hisor- Zarafshon okrugining orografik chizmasi:

1. Taxtaqorachi dovoni. 2. Hazrati Sulton cho`qqisi —4648 m. 3. Chaqilqalon tog`ining Zebon chuqqisi —2336 m. 4. Qoratepa tog`ning Kamqo`ton chuqqisi —2595 m. 5. Ziyovuddin tog`ining Dardko`l chuqqisi —914 m. 6. Xuroson chuqqisi —3744 m. 7. Chaqchar tizmasi. 8. Kushtang to`gi 9. Zarkosa cho`qqisi 2230 m.

1-topshiriq. O'zbekiston tabiiy xaritasidan Hisor — Zarafshon tabiiy-geografik okrugining geografik o'rmini aniqlab, eng chekka nuqtalarini belgilab, ularning geografik kenglik va geografik uzunliklarini aniqlang. Okrug shimoldan janubga va g'arbdan sharqqa necha km cho'zilganligini xarita masshtabi yoki jadval ma'lumotlaridan foydalanib, gradus turlari yordamida hisoblab chiqing.

2-topshiriq. O'zbekiston tabiiy va iqtisodiy xaritalaridan Hisor — Zarafshon tabiiy-geografik okrugi qaysi tog' ti- zimi, daryo, qaysi davlat va tabiiy-geografik okrug bilan chegaradoshligini aniqlang. Paletka yordamida okrug yer maydonini hisoblab chiqib, boshqa tabiiy-geografik okrug-lar yer maydoni bilan taqqoslovchi diagramma tuzing.

3-topshiriq; O'zbekiston tabiiy xaritasidan va O'zbekiston geografik atlasidan (1-qism) hamda ilovadagi ma'lumotlaridan foydalanib, Hisor — Zarafshon tabiiy-geografik okrugining orografik chizmasini ishlang va unga quyidagi tog'lar, cho'qqilar va daryolarning nomlarini belgilang:

Tog'lar: Zarafshon tizmasi, Chaqalikalon (Zebon cho'q-qisi — 2336 m), Qoratepa (Kamqo'ton cho'qqisi — 2195 m), Zirabuloq, Ziyovuddin (Dardko'l cho'qqisi — 914 m), Hisor tizmasi (Hazrati Sulton cho'qqisi — 4648 m), Shertog', Sumsar, Chaqchar (Xuroson cho'qqisi 3744 m), Osmontarash, Beshnov, Eshakmaydon, Xontaxta, Maydinon, Qorasart, Qushtang, Boysun, Ketmonchopti, Ko'k-tog', Usmontog', Kesiktog', Madantog', Tepagatom, Suv-siztog', Ko'xitang, Surxontog'...

Daryolar: Qashqadaryo, Oqsuv, G'uzordaryo, Jinnidaryo, Tanxoz, Yakkabog', Surxondaryo, To'palangdaryo...

4-topshiriq; Hisor — Zarafshon tabiiy-geografik okrugi geografik o'rni, relyefi va geologik tuzilishi jihatidan G'arbiy Tyanshan okrugidan qanday farq qiladi?

5-topshiriq; O'zbekiston geologik, tektonik va eng yangi tektonik xaritalarini tahlil qilib, Hisor — Zarafshon tabiiy-geografik okrugi hududi qaysi davrda suv ostida bo'lgan va qaysi tektonik jarayonda quruqlikka aylanib, tog'lar burmalangan (ko'tarilgan)ligini aniqlang. Okrugda uchrovchi tog' jinslari, ularning turlari hamda qaysi davrga xos ekanligini bilib oling. Okrug hududida uchrovchi qazilma boyliklar qaysi davr jinslari orasida uchrashligini aniqlang.

6-topshiriq; O'zbekiston tabiiy, tektonik va eng yangi tektonik xaritalarini bir-biriga taqqoslab, tahlil qilib, orografik obyektlar geostrukturalarga qanchalik mos kelishligini aniqlang. Nima uchun Hisor — Zarafshon tabiiy-geografik okrugi hududida tez-tez zilzila bo'lib turishi sababini (eng yangi tektonik xaritani tahlil qilib) tushuntirib bering.

7-topshiriq; O'zbekiston geografik atlasini to'rtlamchi davr va geomorfologik xaritalarni tahlil qilib, Hisor — Zarafshon tabiiy-geografik okrugi hududida antropogen davr (qadimiy muzlik) muzligi ta'sirida bo'lgan joylarni aniqlang.

8-topshiriq; «Iqlim» mavzusidagi berilgan yo'l-yo'riq asosida Hisor — Zarafshon tabiiy-geografik okrugidagi Kitob va Boysun shaharlarida 22-iyun va 22-dekabr hamda kuzgi va bahorgi teng kunlikda quyoshning ufqdan balandligini aniqlang. O'sha shaharlarda 1sm^2 va bir gektar yuzaga quyoshdan tushadigan energiya miqdorini hisoblab chiqing. jadval ma'lumotlaridan foydalanib, Kitob shahrida quyosh nur sochib turish davrining (soat hisobida) oylar bo'yicha taqsimlanish diagrammasini tuzib, Samarqand shahri bilan taqqoslab, tahlil qilib, nima uchun Samarqandda quyosh ko'proq nur sochib turishi sababini tushuntirib bering.

9-topshiriq; O'zbekiston geografik atlasidagi iqlimga doir xaritalarni tahlil qilib, Hisor — Zarafshon tabiiy-geografik okrugi iqlimining tarkib topishiga ta'sir etuvchi omillarni izohlang. Okrug hududiga qish va yoz oylarida ko'p esuvchi shamollar yo'nalishini belgilab, ular haroratga va yog'inlar taqsimotiga qanday ta'sir etishini aniqlang.

10-topshiriq; O'zbekiston iqlim va tabiiy xaritalarini tahlil qilib, Hisor — Zarafshon tabiiy-geografik hududida iyul va yanvar izotermalarining joylashishini o'rganing. Havo haroratining o'zgarishiga relyefning ta'sirini hamda quyidan yuqoriga ko'tarilgan sari haroratning o'zgarishini izohlab bering.

11-topshiriq; Urgut, Dehqonobod, Boysun shaharlarida o'rtacha oylik haroratning taqsimlanish diagrammasini tuzing. Diagramma gorizontal o'qiga oylar, vertikal o'qiga harorat (gradus hisobida) qo'yiladi. Shaharlardagi haroratlar har xil rangda ko'rsatiladi. Ularni tahlil qilib, Urgut, Dehqonobod va Boysun shaharlari orasidagi harorat tafovut-larini tushuntirib bering.

AMALIY MASHG'ULOT-26

Mavzu: Bobotog' okrugi.

Bobotog'ni g'arbdan Surxondaryo, shimoldan Hisor, sharqdan Kofirnixon, janubdan esa Amudaryo vodiylari o'rab turadi. Biz okrugning sharqiy chegarasini shartli ravishda O'zbekistonning Tojikiston bilan bo'lgan davlat chegarasi orqali

o‘tkazamiz. Bobotog‘ okrugida bo‘r va paleogen, neogen davr yotqiziqlari rivojlangan bo‘lib, ular alp tektonikasi ta‘sirida ko‘tarilib qolgan.

Maqsad: Bobotog‘ okrugini tabiiy geografik o‘rnini, rel‘efini, geologik tuzilishini, iqlimini, suvlarini, flora va faunasini, tabiatini muhofaza qilish masalalarini o‘rganish.

Dars jixozi: O‘zbekistonning tabiiy geografik rayonlashtirish xaritasi, O‘zbekistonning tabiiy xaritasi, O‘zbekiston respublikasi atlas. Bobotog‘ okrugini tabiiy geografik xaritasi

1-topshiriq; Bobotog‘ okrugini tabiiy geografik o‘rnini, relyefini, geologik tuzilishini, iqlimini, suvlarini, flora va faunasini, tabiatini muhofaza qilish masalalarini amaliyot daftariga yozing.

2-topshiriq; ; Bobotog‘ tizmasida qanday balandlik mintaqalari mavjud va ushbu balandlik mintaqalarining tuprog‘i, flora va faunasini yuqoriga tomon qanday o‘zgarib boradi.

O‘ZBEKISTON TABIIY GEOGRAFIYASI FANIDAN TEST SAVOLLARI

1. Abu Rayxon Beruniyni geografiyaga bag‘ishlab yozgan qaysi asarini bilasiz.

- A) At-tafkim, Ulugbek xazinasi
- B) Shayboniynoma, Qonuniy ma‘sudiy
- S) Boburnoma, Ziji-kuragoniy
- D) Geodeziya, Xindiston
- E) Qutadg‘u-bilig, Baxr al-Asror

2. Orol dengizi ekspedisiyasi qachon va kim tomonidan uyushtirilgan?

- A) 1849-1897 yilda, Xoxlov
- B) 1854-1860 yilda, Jenikson
- S) 1848-1850 yilda, Butanov
- D) 1906-1909 yilda, Beniven

E) 1924-1926 yilda, Abdullaev

3. O`zbekiston hududining qancha qismi tog`larga va qanchasi tekisliklarga to`gri keladi?

A) 25 tog`larga qolgani tekisliklarga

B) 67 tog`lik 83 tekislik

S) 34 tog`lik 86 tekislik

D) 29 tog`lik 71 tekislik

E) 35 tog`lik 65 tekislik

4. O`zbekistonning eng baland tog` cho`qqisi va eng past botig`ini ayting, ular necha metr?

A) Eng baland 3119m – eng past -38m

B) Eng baland 4688m – eng past -12m

S) Eng baland 5649m – eng past -132m

D) Eng baland 2169m – eng past -46m

E) Eng baland 4448m – eng past -7m

5. Orol kuli bo`yidagi va Ustyurtdagi tik jarlarni tabiiy geografiyada qanday nom bilan yuritiladi?

A) Degish; B) Tik jar; S) Chinklar; D) qobiklar; E) Bo`shliqlar

6. Qaysi davrda O`zbekistonda qaytadan dengiz bosish ro`y bergan?

A) Paleogen davrida

B) Yura davrida

S) Trias davrida

D) Arxey erasida

E) Kaynazoy

7. Sulton Uvays togidagi yirik fosforit konini aniq ayting.

A) Xujakul; B) Kogon; S) Olmaliq; D) Jarqoq; E) Xonqiz

8. Quyi Amudaryoda yashovchilar daryoning «Qirgoq yuvish» xodisasini qanday ataydilar?

A) Chinklar; B) Loyqalanish; S) Chorik; D) Al-xayot; E) Degish

9. O`zbekiston Respublikasidagi quyar joyi yuq daryoning nomini ayting u qaysi vodiidir?

- A) Amudaryo-quyi Amudaryo vodiysi
- B) Sangzor-Mirzachul vodiysi
- S) Zarafshon-Zarafshon vodiysi
- D) Sirdaryo-Sirdaryo vodiysi
- E) Isfayram-Fargona vodiysi

10.O`zbekistonda eng ko`p yomgir yogadigan va eng issiq joylar qayerlarda?

- A) Fargona viloyati eng ko`p yog`in 500 mm Navoiy viloyati +44⁰S
- B) Samarqan viloyati eng ko`p yog`in 900 mm Surxondaryo viloyati +49,5⁰S
- S) Andijon viloyati eng ko`p yog`in 738 mm Qoraqalpog`iston viloyati +53⁰S
- D) Namangan viloyati eng ko`p yog`in 885 mm Qashqadaryo viloyati +47⁰S
- E) Sirdaryo viloyati eng ko`p yog`in 687 mm Buxoro viloyati +45,5⁰S

11.O`zbekiston tekisliklarida yoz va baxorda esuvchi quruq issiq shamolni ayting.

- A) Afgon; B) Bekobod; S) Fyon; D) Garmsel; E) Siklon

12.O`zbekiston Respublikasidagi kattaligi jixatidan 2 o`rinda turadigan kulning nomini ayting

- A) Sudoch`e; B) Arolion; S) Orol; D) Dengizkul; E) Qubbon

13.O`zbekiston xududini tabiiy geografik rayonlashtirish tizimini tavsiya etgan olimlarni belgilang.

- A) L.S.Berg, S.I.Abumin
- B) V.M.CHetirkin, E.S.Murzaev
- S) P.S.Makeev, L.N.Babushkin
- D) L.N.Babushkin, N.A.Kogay
- E) K.Z.Zokirov, N.A.Kinesarin,

14.O`zbekiston hududini tabiiy geografik rayonlashtirishda qanday taksonomik birliklar tizimi qullaniladi?

- A) mamlakat – okrug –rayon – provensiya – rel`ef
- B) mamlakat-viloyat-tuman-rel`ef-iqlim

- S) mamlakat-landshaft-okrug-resurs
- D) provinsiya-provinsiyacha-okrug-rayon-landshaft
- E) tuman-viloyat-mamlakat-rel`ef-okrug

15. Respublikamizda har 8-9 yilda bir marta urug` beradigan cho`l o`simligining nomini ayting.

- A) Chalov; B) Juzgun; S) Kovrak; D) Qiyok; E) Buyurgun

16. O`zbekistonda esuvchi qaysi o`simlikdan elim olinadi?

- A) Qamish; B) Saksovul; S) Xina; D) Shiroch; E) Tut

17. Neft, tabiiy gaz, osh tuzi, kaliy tuzi, yonuvchi slanes, azonrit, oltingugurt, fosforit, marmar, gips, kvars, meril va boshqa foydali qazilmalar qaysi davrda vujudga kelgan?

- A) Kaynazoy erasi va birlamchi davrida.
- B) Arxey erasi va birlamchi davrida
- S) Neogen davri
- D) Proterazoy erasi
- E) Mezazoy erasi va uchlamchi davri

18. Respublikamiz Janubida esuvchi chang-to`zonli shamol nomini ayting.

- A) Afgon B) Fyon S) Garmsel D) Bekobod E) Siklon

19. Kuniga 30 km yurganda O`zbekiston chegarasini necha kunda aylanib chiqish mumkin.

- A) 89 kunda B) 176 kunda S) 365 kunda D) 254 kunda E) 189 kunda

20. O`zbekiston qaysi davlatlar bilan deyarli bir kenglikda joylashgan?

- A) Yaponiya, Italiya
- B) Meksika, Portugaliya
- S) Belgiya, Gresiya
- D) Fransiya, Germaniya
- E) Gresiya, Yaponiya

21. Buyuk ipak yoli nechanchi asrlarda asosiy karvon yoli bo`lgan?

- A) V-X asrlarda. B) VIII-XII asrlarda.

S) II- XVI asrlarda. D) III-XI asrlarda.

E) VII-XIII asrlarda.

22. Qizilqumdagi Quljuqtog`, Nurota, Ovminzatog` qaysi tog` burmalanishida kutarilgan?

A) Gersen B) Al`p S) Kaleydon D) Kimmeriy E) To`gri javob yoq

23. Toshkentdagi kuchli zilzila qachon bo`lgan?

A) 1950 yilda B) 1955 yilda S) 1960 yilda

D) 1966 yilda E) 1970 yilda

24. Qizilqum markazidagi Muruntog` oltin koni qachon topilgan?

A) 1961 yilda B) 1968 yilda S) 1965 yilda

D) 1966 yilda E) 1970 yilda

25. Eng katta tosh ko`mir qayerda?

A) Toshkentda B) Surxondaryoda S) Fargonada D) Samarqandda E) Qashqadaryo

26. O`zbekistondagi eng chuqur botig qaysi biri?

A) Mingbuloq B) Oyoqog`itma S) Qoragiyo D) Mullali E) Asakaovdan

27. Toshkent shaxri dengiz satxidan necha metr baland?

A) 470m B) 465m S) 478m D) 480 E) 485m

28. Oloy tog tizmalarini ajrating.

A) Turkiston, Zarafshon B) Qurama, Chotkol S) Nurota, Quljuqtog`

D) Bobotog, Qorategin E) A, S javoblar to`gri

29. Tog`dan vodiylar tomon esuvchi shamol nima deb ataladi?

A) Garbiy shamol B) Garmsel S) Briz D) feyon E) Musson

30. Havo xaroratlar farqi nima deb ataladi?

A) Amplituda B) Mutloq yuqori xarorat S) past xarorat

D) yog`inlar farqi E) Qishki xarorat

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch” Toshkent, “Ma’naviyat” 2008
2. Karimov I.A. “Jahon moliyaviy -iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari” Toshkent, “O’zbekiston” 2009
3. Baratov P. O’zbekiston tabiiy geografiyasi Toshkent, “O’qituvchi” 1996
4. Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish. Toshkent, “O’qituvchi” 1991
5. Baratov P., Mamatqulov M., Rafiqov A. O’rta Osiyo tabiiy geografiya. Toshkent, “O’qituvchi”, 2002
6. Baratov P. O’zbekiston tabiiy geografiyasidan amaliy mashg’ulotlar T. «Cho’lpon» 2005
7. Hasanov I. A., P.N.G’ulomov O’rta Osiyo tabiiy geografiyasi, T., 2002
8. Hasanov I. A., G’ulomov P.N, Osiyo tabiiy geografiyasi. Toshkent, O’zMU, 2002
9. Hasanov I. A., P.N.G’ulomov O’zbekiston tabiiy geografiyasi, T., 2006
10. Qurboniyozov G. O’zbekiston geografiyasi. T., 1997
11. Vahobov. H. va boshqalar Umumiy yer bilimi. ”Bilim”, 2005
12. O’zbekistonning tabiiy geografiyasi xaritasi. 2004.
13. O’zbekistonning ekologik geografiyasi xaritasi. 2004
14. Ziyonet va internet ma’lumotlar

MUNDARIJA

Kirish	
O'zbekiston tabiiy geografiyasining o'rganish ob'ekti, maqsadi, vazifalari.	
O'zbekiston tabiati va tabiiy boyliklari-ning o'rganish tarixi.....	.. .
O'zbekiston geologik tuzilishi.....	
O'zbekiston relyefi.....	
O'zbekiston iqlimi.....	
Yog'inlar, yil fasllari.....	
O'zbekiston ichki suvlari.....	
O'zbekiston tuproq qoplami.....	
O'zbekiston o'simliklari.....	
O'zbekistonning hayvonot dunyosi.....	
O'zbekistonning tabiati, tabiiy boyliklari va ularni muhofaza qilish.....	
O'zbekiston hududining rayonlashtirish tizimi.....	
Ustyurt.....	
Quyi Amudaryo.....	
Qizilqum	
Quyi Zarafshon	
Farg'ona.....	
O'rta Zarafshon.....	
Qashqadaryo.....	
Surxondaryo.....	
Toshkent-Mirzacho'l.....	
G'arbiy Tyanshan.....	
Turkiston-Nurota.....	
Xisor-Zarafshon.....	
Bobotog' okruglari.....	

